

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



## **MAKTABGACHA TA'LIMIT**

**Maktabgacha ta'limda xorijiy  
tajribalarning qiyosiy tahlili**

**MODULI BO'YICHA  
O'QUV-USLUBIY MAJMUA**



**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

- Tuzuvchi:** **G.Sh.Shirbacheysheva** – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Sirtqi (maxsus sirtqi) bo‘limi Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchisi
- Taqrizchilar:** **M.Fayzullayeva** – Maktabgacha ta’lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti “Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va normativ metodik ta’minlash” bo‘limi boshlig‘i  
**L.R.Mirjalolova** – Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi” kafedrasи dotsenti, p.f.n.  
**Xorijiy ekspert:** PhD doktori Frank Laper - Ponter de Parij №10 universiteti (Parij).

**O‘quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2020 yil 27 avgustdagи 1/3.6- sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**



## MUNDARIJA

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....</b>	<b>11</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR .....</b>	<b>23</b>
<b>IV. AMALIY MATERIALLAR .....</b>	<b>59</b>
<b>V. KEYSALAR BANKI .....</b>	<b>80</b>
<b>VI. GLOSSARIY .....</b>	<b>81</b>
<b>VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>	<b>88</b>

## I. ISHCHI DASTUR

### KIRISH

Respublikamizda ta'lim tizimi doimo davlatning e'tiborida bo'lmoqda. O'tgan davr mobaynida sog'lom va har tomonlama rivojlangan avlodning shakllanishini ta'minlashga qaratilgan samarali maktabgacha ta'lim tizimini tashkil qilish bo'yicha kompleks tashkiliy-huquqiy choratadbirlar amalga oshirildi. Hozirgi kunda bu soha chuqur isloh qilinish holatida.

Mustaqillik yillarida respublikada ta'limtarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarildi. Biroq o'tkazilgan tahlillar maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko'rsatmoqda».

Uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida mazkur qarorga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalari hamda ularning tuman (shahar)lardagi bo'limlarini tashkil etish vazifasi belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, uning hududiy bo'linmalarining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari qatorida ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirzièev rahbarligida 2017 yil 16 avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda ichida — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida||gi PQ-3261-sonli Qarori, —Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida||gi PF5198-sonli Farmoni hamda —Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida||gi PQ-3955-sonli Qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida||gi Farmonga muvofiq, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni hisobga olgan holda bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodir bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayेrlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish taqozo etadi.

## Modulning maqsadi va vazifalari

Xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta'lim tizimi, ta'lim xizmatlarini ko'rsatish borasidagi xorijiy tajribalar va maktabgacha ta'linda kredit-modul tizimi mohiyatini tushuntirib berishdan iborat.

### Modulning vazifalari:

- Xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta'lim tizimi. Maktabgacha ta'limni rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar. Yevropa yagona ta'lim muhiti (Bolonya jarayoni)da maktabgacha ta'lim. Modulli ta'lim mohiyati. Modulli ta'lim tamoyillari. Modul bloklari.

- Maktabgacha ta'linda kredit-modul tizimi mohiyati. Rivojlangan Yevropa davlatlari (Germaniya, Angliya), Osiyo mamlakatlari (Yaponiya, Janubiy Koreya) va Amerika Qo'shma Shtatlari kabi davlatlarning o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot jarayonlarini tashkil etish va amalda qo'llash bo'yicha tajribalarini ta'lim tizimiga tadbiq etilishi.

- Ta'lim xizmatlarini ko'rsatish borasidagi xorijiy tajribalar.

- Maktabgacha pedagogika fanlarining rivojlanishiga doir eng so'nggi ilmiy nazariyalar va ularning mualliflari faoliyati. Soha ilmiy maktablari faoliyati. Ilmiy maktablarda erishilgan yutuqlar. Maktabgacha pedagogika sohasida yaratilgan yangi o'quv va ilmiy adabiyotlar tahlili bo'yicha ma'lumot berishdan iborat.

## Modul bo'yicha tinglovchilarining bilimi, ko'nikma, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

### Tinglovchi:

- maktabgacha ta'limni tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish siyosatning mazmun-mohiyati to'g'risida;

- xorijiy davlatlarda maktabgacha yo'nalishlari va undan ko'zlangan maqsadlar haqida;

- g'oyaviy-mafkuraviy jaraenlarning globallashuv sharoitida ta'lim-tarbiya tizimi oldidagi vazifalarni bilishi;

- xorijagi maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish bo'yicha farmon mazmun-mohiyatini o'z faoliyatida foydalana olish;

- maktabgacha ta'lim tizimi muammolari va ularning rivojlanish istiqbollarini zamon talabi nuqtai nazaridan tahlil qilish;

- davlat rahbari tomonidan maktabgacha ta'limni isloh etish bo'yicha belgilangan vazifalarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

- respublikada maktabgacha ta'lim tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishiga o'z munosabatini bildira olish;

- xorijiy mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan maruzalarida ta'lim tizimini modernizatsiyalash bilan bog'liq vazifalarni amaliyatga tatbiq etish malakalariga ega bo'lishi lozim.
- maktabgacha ta'limning kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash jarayonida faol ishtirok etish;
- ta'lim-tarbiya jarayonlariga milliy manfaat nuqtai nazaridan normativ-huquqiy hujjalarni asosida xulosalar chiqara olish kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

Maktabgacha ta'limda xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili moduli nazariy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi. Nazariy mashg'ulotlarda xorijiy davlatlaridagi maktabgacha ta'lim sohasidagi dolzarb muammolar va tizim faoliyatini tubdan yaxshilashga qaratilgan islohotlarning mazmun-mohiyatini singdirishdan iborat. Mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlardan, —SWOTtahlil yoki —FSMU metodlari bilan ishslash va boshqa interaktiv ta'lim usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

**Modulning o'quv rejadagi boshqa bloklar bilan bog'liqligi va uzviyligi** Modul mazmuni o'quv rejadagi — Maktabgacha ta'lim fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalash modul bilan uzviy bog'langan holda kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi

### **Modulning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Mazkur modul Ta'lim-tarbiya texnologiyalari va pedagogik mahorat, Maktabgacha èshdagi bolalarning fiziologik va psixologik xususiyatlari va Mutaxassislik fanlari bloklaridan avval o'r ganiladi. Unda keyin o'r ganiladigan bloklarning mazmun yo'nalishlarni va g'oyaviy jihatlarini maktabgacha ta'limga tatbiq etish imkoniyatlarni ochib beradi.

### **Modulning ta'limdagi o'rni**

Tinglovchilarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta'lim sohasidagi dolzarb muammolar va tizim faoliyatini tubdan yaxshilashga qaratilgan islohotlarining sièsiy hamda huquqiy asoslarini o'rgatish hamda amalda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish orqali ta'lim samaradorligini ta'minlashdan iborat.

**Modul bo'yicha soatlar taqsimoti**

№	<b>Modul mavzulari</b>	<b>Jami</b>	<b>Jumladan</b>	
			<b>nazariy</b>	<b>amaly</b>
<b>1.</b>	Xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta'lim tizimi	<b>4</b>	<b>2</b>	<b>2</b>
<b>2.</b>	Maktabgacha ta'limni rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar.	<b>4</b>	<b>2</b>	<b>2</b>
<b>3.</b>	Modulli ta'lim mohiyati. Modulli ta'lim tamoyillari. Modul bloklari.	<b>4</b>	<b>2</b>	<b>2</b>
<b>4.</b>	Rivojlangan Yevropa davlatlari (Germaniya, Angliya), Osiyo mamlakatlari (Yaponiya, Janubiy Koreya) va Amerika Qo'shma Shtatlari kabi davlatlarning o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot jarayonlarini tashkil etish va amalda qo'llash bo'yicha tajribalarini ta'lim tizimiga tadbiq etilishi.	<b>4</b>	<b>2</b>	<b>2</b>
<b>5.</b>	Maktabgacha pedagogika fanlarining rivojlanishiga doir eng so'nggi ilmiy nazariyalar va ularning mualliflari faoliyati. Soha ilmiy maktablari faoliyati. Ilmiy maktablarda erishilgan yutuqlar.	<b>4</b>	<b>2</b>	<b>2</b>
<b>6.</b>	Evropa yagona ta'lim muhiti (Bolonya jarayoni)da maktabgacha ta'lim.	<b>2</b>	-	<b>2</b>
<b>7.</b>	Maktabgacha ta'limda kredit-modul tizimi mohiyati.	<b>2</b>	-	<b>2</b>
<b>8.</b>	Ta'lim xizmatlarini ko'rsatish borasidagi xorijiy tajribalar.	<b>2</b>	-	<b>2</b>
<b>Jami</b>		<b>26</b>	<b>10</b>	<b>16</b>

**NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

**1-Mavzu: Xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta'lim tizimi.**

Maktabgacha ta'lim tizimini tanqidiy o'rghanish. Horijiy mamlakatlar ta'lim tizimidagi tajribasi. Horijiy mamlakatlarning maktabgacha ta'lim tizimlarini o'rghanish.

**2-Mavzu: Maktabgacha ta'limni rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar.**

Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmi. Uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini – maktabgacha ta'lim. Respublikamizda maktabgacha ta'lim tashkilotdari faoliyati.

**3-Mavzu: Modulli ta'lim mohiyati. Modulli ta'lim tamoyillari. Modul bloklari.**

Modulli ta'lim mohiyati. Modulli ta'lim tamoyillari. Modul bloklari Maktabgacha ta'limda kredit-modul tizimi. Yevropa yagona ta'lim muhiti (Bolonya jarayoni)da maktabgacha ta'lim.

**4-Mavzu: Rivojlangan Yevropa davlatlari (Germaniya, Angliya), Osiyo mamlakatlari (Yaponiya, Janubiy Koreya) va Amerika Qo‘shma Shtatlari kabi davlatlarning o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot jarayonlarini tashkil etish va amalda qo‘llash bo‘yicha tajribalarini ta'lim tizimiga tadbiq etilishi.**

Jahon hamjamiyatida ta'limni rivojlanishi. O‘zbekistondagi ta'lim tizimi xolati. Xorijiy davlatlarda ilmiy-tadqiqot jarayonlarini tashkil etish.

**5-Mavzu: Maktabgacha pedagogika fanlarining rivojlanishiga doir eng so‘nggi ilmiy nazariyalar va ularning mualliflari faoliyati. Soha ilmiy maktablari faoliyati. Ilmiy maktablarda erishilgan yutuqlar.**

Maktabgacha pedagogika fanlarining rivojlanishiga doir eng so‘nggi ilmiy nazariyalar. Maktabgacha ta'limida ta'lim-tarbiya ishlarni takomillashtirish. Ilmiy maktablarda erishilgan yutuqlar.

## **AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI**

**1-Amaliy mashg‘ulot: Xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta'lim tizimi.**

Maktabgacha ta'lim tizimini tanqidiy o‘rganish. Horijiy mamlakatlar ta'lim tizimidagi tajribasi. Horijiy mamlakatlarning maktabgacha ta'lim tizimlarini o‘rganish.

**2-Amaliy mashg‘ulot: Maktabgacha ta'limni rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar.**

Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmi. Uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini – maktabgacha ta'lim. Respublikamizda maktabgacha ta'lim tashkilotdari faoliyati.

### **3-Amaliy mashg'ulot: Modulli ta'lismohiyati. Modulli ta'litmoyillari. Modul bloklari.**

Modulli ta'lismohiyati. Modulli ta'litmoyillari. Modul bloklari Maktabgacha ta'linda kredit-modul tizimi. Yevropa yagona ta'litmuhiti (Bolonya jarayoni)da maktabgacha ta'lismohiyati.

### **4-Amaliy mashg'ulot: Rivojlangan Yevropa davlatlari (Germaniya, Angliya), Osiyo mamlakatlari (Yaponiya, Janubiy Koreya) va Amerika Qo'shma Shtatlari kabi davlatlarning o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot jarayonlarini tashkil etish va amalda qo'llash bo'yicha tajribalarini ta'litm tizimiga tadbiq etilishi.**

Jahon hamjamiyatida ta'lismi rivojlanishi. O'zbekistondagi ta'litmoyiti xolati. Xorijiy davlatlarda ilmiy-tadqiqot jarayonlarini tashkil etish.

### **5-Amaliy mashg'ulot: Maktabgacha pedagogika fanlarining rivojlanishiga doir eng so'nggi ilmiy nazariyalar va ularning mualliflari faoliyati. Soha ilmiy maktablari faoliyati. Ilmiy maktablarda erishilgan yutuqlar.**

Maktabgacha pedagogika fanlarining rivojlanishiga doir eng so'nggi ilmiy nazariyalar. Maktabgacha ta'limali ta'litm-tarbiya ishlarni takomillashtirish. Ilmiy maktablarda erishilgan yutuqlar.

### **6-Amaliy mashg'ulot: Yevropa yagona ta'litmuhiti (Bolonya jarayoni)da maktabgacha ta'lismohiyati.**

Yevropada yagona kasbiy ta'lismohiyati yaratilishi. Tizimning umumiy asoslarida Bolonya jarayoni. Modul-kredit tizimi muayyan tamoyillari.

### **7-Amaliy mashg'ulot: Maktabgacha ta'linda kredit-modul tizimi mohiyati.**

Ta'litmoyiti maktabgacha ta'litm-tarbiya jarayonini modernizasiyalash yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'litmoyiti yo'nalishi va xorijiy davlatlarida muqobil ta'litmoyiti yo'nalishlarida pedagogika fanlari turkumiga kiruvchi o'quv fanlari o'qitilishining qiyosiy tahlili

### **8-Amaliy mashg'ulot: Ta'litmoyiti ko'rsatish borasidagi xorijiy tajribalar.**

Xorijiy maktabgacha ta'litmoyiti asosiy tushunchalari. Xorijiy davlatlar siyosati tavsifi.

## O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi: - ma'ruza mashg'ulotlar (ma'lumotlarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash); - davra suhbatlari (ta'lim sohasidagi islohotlar bo'yicha taklif berish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish); - bahs va munozaralar (maktabgacha ta'lim tizimi rivoji bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

### Mashg'ulotda jarayonida qo'llaniladigan «Aqliy hujum» usuli

<b>Aqliy xujum</b>	- (breystorming – miya buroni), amaliy va ilmiy muammolarni yechishda jamoa bilan ma'lumot yig'ish
<b>Usulni asosiy g'oyasi</b>	- g'oyalalar toplash, ularni baholash va tahlil kilish, ajratish. “Aqliy hujum”ni olib boruvchining xatti- xarakati uchun bu g'oya asosiy ko'rsatgich bo'lib, ishtirokchilarni imkoniyat qadar ko'p g'oyalalar taklif kilishga undaydi.
<b>Qoidalari</b>	Imkonimiz boricha ko'proq g'oyalarni taklif etish (jamlash), ularni talqin qilish, muammolarni yechish va ularni doskaga yozib qo'yish.
<b>Ta'lim beruvchi</b>	Qatnashchilarni 3-4 guruxga bo'ladi va xar biriga muammolar taklif etadi ( <b>Illova 1</b> ) <ul style="list-style-type: none"> <li>- Ishtirokchilarni qo'llab-qo'vvatlaydi (imo-ishora, jilmayish, xa-yo'q so'zлari bilan);</li> <li>- yumshoq, ammo astoydil talabalarni boshkalarni tanqid kilishdan kaytarib turadi;</li> <li>- xar bir fikrni o'zgartirmasdan doskaga yozdirib qo'yadi;</li> <li>- talabalarni so'rovga kirishib ketishiga yordam berish va psixologik tuskinlikni yukotish uchun, oldingi yoki shu darsdan kutilmagan, original savollar berib mashq o'tkazadi (blis so'rov) (<b>Illova 2</b>).</li> </ul>
<b>Fidbeyk</b>	-har bir g'oyani muhokama qilish; -eng to'g'ri g'oyalarni qo'llab-kuvvatlash

### Aqliy hujumning maqsadi va qoidalari

#### **Aqliy hujumni o'tkazishdan maqsad:**

- muammoni hal qilish uchun g'oyalarni topish;
- g'oyalarni ularning ahamiyatliligiga qarab tartiblash;
- faol fikrlash malakasini shakllantirish;
- kutilmagan g'oyalarni paydo bo'lish jarayonini namoyish qilish;
- topilgan g'oyalardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.



### Aqliy hujum qoidalari:

- g‘oyalarni ilgari surilishi bosqichida tanqid taqiqlanadi;
- original hatto fantastik g‘oyalar rag‘batlantiriladi;
- barcha g‘oyalar yozib boriladi yoki qayd qilinadi;
- agar ma’qul topsa muallifning o‘zi ham yozib boradi;
- “aqliy hujum” metodida qatnashchilar bir-biri bilan yuridik va ma’muriy jihatdan bog‘liq bo‘lmasligi zarur;
- tahlilchilar guruhi nisbatan samarali g‘oyalarni tahlil qiladi, sintez qiladi, baholaydi va tanlaydi;
- ushbu tadbirni o‘tkazishda Keynsning “ iqtisodchilar adashsalar ham ularni g‘oyasi kelajak uchun xizmat qiladi” degan qoidasiga amal qilish.

### Natija:

- talabalar tomonidan muayyan nazariy bilimlarni puxta o‘zlashtirishga erishiladi;
- vaqt ajratiladi va qilinadi;
- har bir talaba faollikka intiladi;
- ularda erkin fikrlash layoqati shakllanadi.

### “SWOT-tahlil” metodidan foydalanish

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



**Namuna:** Maktabgacha ta'lim tizimning kechagi va bugungi holati masalasida “SWOT-tahlil” metodida tahlil qiling.

S	Respublikada maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamram olish ko'rsatkichi 27 foizni tashkil etadi.	Maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni 100 foiz qamrab olishga qaratilgan
W	Maktabgacha ta'lim muassasalarida moddiy-texnik bazaning nochorligi, malakali kadrlar yetishmasligi, sifatli oziq-ovqat ta'minotining pastligi.	Ushbu sohada har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan 57 mingdan ortiq mutaxassislar mehnat qilayotgan bo'lsa, shundan 85 foizini o'rta ma'lumotli kadrlar tashkil etadi.
O	Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'inidir. Shu bois bolalarning sog'lom va bilimli, yetuk kadrlar bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi juda - muhim o'rin tutadi.	Maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va o'quv jarayonini takomillashtirish, MTMlar infratuzilmasi va moddiy-texnik ta'minotini yaxshilanadi.
T	So'nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari 45 foizdan ziyodroq kamaygan.	Kelgusi besh yillikda 2200 ta maktabgacha ta'lim muassasasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalasi oxiriga yetkazish.



## «FSMU» metodi

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

### Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:



- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

### Namuna.

**Fikr:** “O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” dasturi”.

**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.




## “Kichik guruhlarda ishlash” metodi

**“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH” METODI** - ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtini tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



**“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.

2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta'lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo'linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta'lim beruvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va yo'naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

**«Kichik guruhlarda ishslash» metodining afzalligi:**

- o'qitish mazmunining yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqt ni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta'lim oluvchilar jalg etiladi;
- o'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

**«Kichik guruhlarda ishslash» metodining kamchiliklari:**

- ba'zi kichik guruhlarda kuchsiz ta'lim oluvchilar bo'lganligi sababli kuchli ta'lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta'lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo'ladi;
- guruhlararo o'zaro salbiy raqobatlar paydo bo'lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o'zaro nizo paydo bo'lishi mumkin.



**“XULOSALASH” (Rezyuml, Veer) metodi**

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rghanishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rGANILADI. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.



### Metodni amalga oshirish tartibi:



Ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



Mashg'ulotning maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



Har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroficha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsija etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



Nvbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, o'qituvchi tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlrl bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.



### "Pinbord" metodi

Pinbord (inglizchadan: pin – mahkamlash, board – yozuv taxtasi) munozara usullari yoki o'quv suhbatini amaliy usul bilan moslashdan iborat. Muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va guruhlashtirish (klassifikatsiya)ni amalga oshirishga, jamoa tarzda yagona yoki aksincha qarama-qarshi pozitsiyani shakllantirishga imkon beradi.

O'qituvchi taklif etilgan muammo bo'yicha o'z nuqtai nazarini bayon qilishni so'raydi. To'g'ridan-to'g'ri yoki ommaviy aqliy hujumning boshlanishini tashkil qiladi (rag'batlantiradi). Fikrlarni taklif qiladilar, muhokama qiladilar, baholaydilar va eng optimal (samarali) fikrni tanlaydilar. Ularni tayanch xulosaviy fikr (2 ta so'zdan ko'p bo'limgan) sifatida alohida qog'ozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar.

O'qituvchi bilan birlashtirish imkonini beradigan skotch yordamida fikrlar jamlanadi, klassifikatsiya qilinadi, muhokamada esa optimal yechimlar bo'yicha aniqlanadi.

Guruh namoyondalari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda:

1) yaqqol xato bo'lgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar;

- 2) bahsli bo'lgan fikrlarni oydinlashtiradilar;
- 3) fikrlarni tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgilarini aniqlaydilar;
- 4) shu belgilar asosida doskadagi barcha fikrlarni (qog'oz va varaqlaridagi) guruhlarga ajratadilar;
- 5) ularning o'zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko'rsatadilar: jamoaning yagona yoki qarama-qarshi pozitsiyalari ishlab chiqiladi.

### Madaniyat

moddiy madaniyat	ma'naviy madaniyat



### “Tushunchalar” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod Tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna:** “Moduldagи tayanch tushunchalar tahlili”



### “Hamkorlikda o'qitish” metodi

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi – biror narsani birga bajarish emas, balki hamkorlikda o'qish, o'rganishdir!

Hamkorlikda o'qitishning samaradorligi:

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o‘z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi. Bu ko‘nikmalar hamkorlikda o‘qiyotganlarda bir-biri bilan raqobat qilayotgan yoki individual o‘qiyotganlarga qaraganda yaxshiroq rivojlangan. Xattoki, hamkorlikda bajarilgan yozma ishlar chuqur mazmunga egaligi bilan farqlanadi.

2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. Hamkorlikda o‘qiyotgan guruh a’zolari betakror g‘oyalarni ko‘proq ishlab chiqadi, turli maqsadlarga erishishda va dars jarayonida paydo bo‘lgan har xil o‘quv masalalarining yangi yechimlarini topishda ijodiy qibiliyatlar rivojlanib boradi.

3. Bir vaziyatda olingen bilimlar boshqa vaziyatda qo‘llanishiga ko‘maklashadi. Bugun guruh bajargan topshiriqni ertaga har tinglovchi mustaqil bajara olishi mumkin.

4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi. Hamkorlik bilimlarga ko‘proq qiziqish uchun ham sharoitlar yaratadi. Mashg‘ulot o‘tkazish usuli qanchalik takomillashgan bo‘lsa, tinglovchilarining o‘rganilayotgan masalaga qiziqishi va faolli ortib boradi.

5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko‘proq vaqt sarflanadi. Hamkorlikda o‘qiyotganlar topshiriqlarni bajarish uchun raqobat qilayotgan yoki individual o‘qiyotganlarga nisbatan ko‘proq vaqt sarflaydilar.

Hamkorlikda o‘qitishning asosiy afzallikkleri:

- hamkorlikda o‘qiyotgan tinglovchilar bir-birining muvaffaqiyatiga ko‘maklashadi;
- yordam va madad beradilar va yordamni qabul qiladilar, gap faqat o‘qish to‘g‘risida emas, balki insoniy, do‘stona munosabat to‘g‘risida ketayapti;
- axborot va “moddiy resurslar”, ya’ni topshiriqni bajarish uchun zarur bo‘lgan barcha narsalar bilan almashadi;
- o‘rtoqlari bergen ma’lumotlarni o‘zlashtiradi va qo‘llashga harakat qiladilar. Og‘zaki tushuntirishlar, axborotni o‘ylab ko‘rish va umumlashtirish, o‘z bilimlari va ko‘nikmalarini boshqalarga uzatish – bularning hammasi bilimlarni tartibga solish, ularni yaxshiroq anglab o‘zlashtirish va umumiylar maqsadga erishishga shaxsiy ulushini qo‘sishga olib keladi;
- tinglovchilar bir-biri bilan muzokara olib borishga va dalillar keltirishga o‘rganadi. Intellektual maydondagi zidliklar qiziquvchanlikni rivojlaniradi, bilimlarni o‘zlashtirish va ularni qayta anglash, o‘rganilayotgan muammoga chuqurroq kirishishga undaydi hamda boshqa ko‘p foydali sifat va ko‘nikmalarni shakllantiradi;
- tinglovchilar yaxshiroq o‘qishga intilishda bir-biriga ko‘maklashadi. O‘qishda o‘rtoqlariga yordam berayotgan tinglovchi o‘zi ham sezilarli darajada yaxshiroq o‘qiydi;

- bir-biriga ta'sir etadi. Hamkorlikda o'qiyotgan guruh a'zolari o'rtoqlariga ta'sir etishning har qanday imkoniyatidan foydalanadilar va o'z navbatida ta'sir uchun ochiqlar;
- aniq ifodolangan motivasiyaga ega. Bilimlarni o'zlashtirishga intilish umumiyligida erishishga qaratilgan hamkorlikdagi mehnat tufayli kuchayadi;
- o'zaro ishonch sharoitini yaratadi va talablarni yuqori darajada ushlab turadi. Guruh a'zolari o'z o'rtoqlariga ishonadilar va o'zlarini o'rtoqlari ishonchini qozonadigan tarzda tutadilar, bu katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun sharoitlar yaratadi. O'zaro ishonch – har birining yuqori yutuqlari uchun yaxshi asos.

Hamkorlikdagi o'qish tamoyillari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- guruhga bitta topshiriq;
- bitta rag'bat: guruh barcha ishtirokchilari hamkorlikdagi ish bahosi (umumiyligida erishish uchun barcha guruh a'zolari sarflaydigan kuchi baholanadi) va akademik natijalari yig'indisidan tashkil topgan bitta baho oladi, ya'ni guruh (komanda) muvaffaqiyati har bir ishtirokchining hissasiga bog'liq;
- har birining o'z muvaffaqiyati va guruhning boshqa a'zolari muvaffaqiyati uchun shaxsiy mas'uliyati;
- hamkorlikdagi faoliyat: guruhiy muzokara, hamkorlik, o'zaro yordam berish kabi o'zaro harakat usullari asosida tashkil topadi;
- muvaffaqiyatga erishishda teng imkoniyatlar: har bir o'qiyotgan o'z shaxsiy yutug'ini takomillashtirish, shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda o'qishga berilgan bo'lishi zarur, chunki u boshqalar bilan teng baholanadi.

### Guruhdagi ishlash qoidalari:

Har kim o'z hamkasblari nutqini xushmuomalalik bilan tinglashi zarur;

Har kim faol, birgalikda ishlashi, berilgan topshiriqqa mas'uliyatli yondashishi zarur;

Har kim yordamga muhtoj bo'lganda uni so'rashi zarur;

Har kimdan yordam so'ralsa, yordam qilishi zarur;

Har kim guruh ishini natijalarini baholashda ishtirok etishi zarur.

- Boshqalarga yordam berib, o'zimiz tushunamiz!
- Biz bitta kemadamiz: yoki birga suzib chiqamiz, yoki birga cho'kib ketamiz!

### Guruhdagi topshiriqni bajarish yo'riqnomasi:

1. Guruh liderini saylang.
2. Topshiriq bilan tanishing va uni qanday qilib bajarishingizni muhokama qiling.
3. Topshiriqni bajaring.
4. Taqdimotga tayyorlaning.

5. Taqdimot o'tkazing.
6. Guruh ishini baholang.

### 1-bosqich

Guruh ish joyini tayyorlash – stol va o'rindiqlar shunday joylashtiriladiki, bunda ta'lim beruvchi auditoriyada erkin harakatlana olsin, har bir guruh a'zosi bir joyda bo'lishlari va bir-birlarini ko'rishlari va eshitishlari kerak, zarur o'quv qo'llanmalar barchaga yetarli bo'lishi kerak.

### 2-Asosiy bosqich

1. Ta'lim oluvchilarni guruhlarga taqsimlash – tanlangan kichik guruhlarga birlashtirish yo'li asosida ta'lim oluvchilarni guruhlarga bo'ladi.

2. O'quv topshiriqlarini tarqatish – muammoli vaziyatni taklif qiladi, ta'lim oluvchilar bilan birgalikda uni echish yo'li va tartibini muhokama qiladi, guruhlarda hamkorlikdagi faoliyatni taqdim etish shaklini ma'lum qiladi. Har biri va butun guruhning natijalarini baholash mezonlarini tushuntiradi.

3. O'quv topshiriqlarni bajarish bo'yicha yo'riqnomani tushuntirish. Guruhalr bo'yicha ishni bajarish uchun zarur materiallarni tarqatadi. Topshiriqni baajarishda qanday qo'shimcha materiallaridan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. Guruhlarda ishslash qoidalarini eslatadi.

Doskada guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani yozadi yoki tarqatadi.

4. Ta'lim oluvchilar bilan qaytar aloqani amalga oshirish Ta'lim oluvchilar bilan guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani muhokama qiladi; hammalari uni tushunganlariga ishonch hosil qiladi.

5. Guruhlarda o'quv topshiriqni bajarish jarayonini tashkil etish – o'quv topshiriqni bajarish bo'yicha ishni boshlanishi haqida e'lon qiladi; Guruh ishini nazorat qiladi. Guruh ishini rejalashtirish, vazifalarni guruh a'zolari o'rtasida taqsimlash, vazifani bajarish bo'yicha yakka tartibda ishslash, yakka tartibda topilgan yechimlarni muhokama qilish, guruh uchun umumi yechimni ifodalash, guruh ishi natijalarini taqdimotini tayyorlash, aniq topshiriqni baajarish uchun zarur bo'lgan alohida bo'lib ishslashga, ko'nikmalarni shakllantirishga e'tiborini qaratadi. Ish borishini sharhlaydi, yutuqlarni baholaydi, ayrim aniq, va samimiy tanbeh qiladi.

6. Guruh ishi taqdimotini tashkil qilish – bajarilgan ish natijalari to'g'risida ma'lumot berish uchun guruh vakillarini tayinlaydi. Baholash mezoni va ko'rsatkichlarini eslatadi.

### 3-Nazorat –yakuniy bosqichi

Yakun yasash – natijalar tekshiruvini o'tkazadi: guruhning har bir ishtirokchisi bilan gaplashadi; Guruh ishini tahlil qiladi, topshiriq bajarilishining yakunini qiladi, erishilgan maqsad to'g'risida xulosalar chiqaradi.

### **Hamkorlikda o‘qitishning samaradorligi**

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o‘z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi.
2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi.
3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo‘llanishiga ko‘maklashadi.
4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi.
5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko‘proq vaqt sarfini talab etadi.

### III. NAZARIY MATERIALLAR

#### 1-Mavzu: Xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta’lim tizimi.

**Reja:**

- 1. Maktabgacha ta’lim tizimini tanqidiy o‘rganish**
- 2. Horijiy mamlakatlar ta’lim tizimidagi tajribasi**
- 3. Horijiy mamlakatlarning maktabgacha ta’lim tizimlarini o‘rganish**

**Tayanch tushunchalar:** maktabgacha ta’lim, maktabgacha ta’lim tashkiloti, xorijiy tajriba, pedagogik faoliyat, uquv dasturi, zamonaviy usullar, maktabgacha yoshidagi bolalar, tarbiyachi, o‘quv jarayoni

#### 1. Maktabgacha ta’lim tizimini tanqidiy o‘rganish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasida takidlaganidek, «Avvalgi uchrashuvlarda ta’lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta’limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi ishlar ahvoli tanqidiy tahlil qilib berilgan edi. Bu boradagi dolzarb vazifalarni amalga oshirish yoshlarimiz, jamiyatimiz va mamlakatimizning kelajagi uchun strategik ahamiyatga ega ekani sababli ushbu sohadagi ishlar shaxsan Bosh vazirga yuklatilgan. Sizning e’tiboringizni quyidagi vazifalarni amalga oshirishga qarataman. Birinchi vazifa – maktabgacha ta’lim sohasida». Mazkur vazifani bajarish borasida joriy yil mobaynida maktabgacha ta’limni uzluksiz ta’lim tizimining ajralmas, birlamchi bo‘g‘ini sifatida takomillashtirish bo‘yicha davlatimiz rahbari tomonidan qator muhim hujjatlar qabul qilindi. Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minalash, bolalarni muktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’limtarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2707-sodan qarori qabul qilindi. Shu qaror bilan tasdiqlangan «Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan dastur»ning asosiy maqsadli vazifalari va yo‘nalishlari qatorida ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda

bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish belgilangan.

Qarorga ko'ra, Maktabgacha ta'limga tizimini tanqidiy o'rganish va yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha komissiya tashkil etilgan hamda uning asosiy vazifalari qatorida quyidagilar belgilangan:

- maktabgacha yoshdagi bolalarni uyg'un rivojlantirish sohasidagi ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda, sifatli maktabgacha ta'limga tashkil etishda davlat talablarini qayta ko'rib chiqish;

- mavjud amaliyat va ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda, nodavlat maktabgacha ta'limga muassasalarini faoliyatini litsenziyalashning soddallashtirilgan tartibini joriy etish, ularning tashkiliy-huquqiy shakllarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi «Maktabgacha ta'limga tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-3261-son qarori. // «Xalq so'zi», 2017 yil 11 sentyabrdagi soni. Maktabgacha ta'limga muassasalarining davlat va nodavlat tarmoqlarini yanada kengaytirish, davlat va nodavlat maktabgacha ta'limga muassasalarini o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish sharoitlarini yaratish, davlat va xususiy sektor sherikligi shartlarida maktabgacha ta'limga muassasalarining yangi shakllarini joriy etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'limga vazirligi faoliyatini samarali tashkil etishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'limga vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» PQ-3305-son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga berilgan sharhda ta'kidlanganidek: «... bugungi kunda maktabgacha ta'limga muassasalarini faoliyatini tubdan yaxshilash, maktabgacha yoshdagi bolalar qamrovini oshirish, ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda, har jihatdan zamonaviy tizim yaratish masalasi dolzarbligicha qolmoqda»<sup>2</sup>. Mazkur qarorda maktabgacha ta'limga tizimini isloh qilishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida qarorda keng ko'lamli tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan, shu jumladan, pedagog va rahbar xodimlarning malakasini oshirish jarayonini samarali tashkil etish, bunda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasidan foydalanish, ta'limga muassasalarini yuqori malakali, zamonaviy bilimga ega kadrlar bilan ta'minlash belgilangan.

Maktabgacha ta'limga sohasi uzluksiz ta'limga tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida respublikada ta'limga tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarildi. Biroq o'tkazilgan tahlillar maktabgacha ta'limga sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko'rsatmoqda.

## 2. Horijiy mamlakatlar ta'lim tizimidagi tajribasi

Uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida mazkur qarorga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, Toshkent shahar maktabgacha ta’lim bosh boshqarmasi, viloyatlar maktabgacha ta’lim boshqarmalari hamda ularning tuman (shahar)lardagi bo‘limlarini tashkil etish vazifasi belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, uning hududiy bo‘linmalarining asosiy vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari qatorida ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish belgilangan. Quyida bir nechta horijiy mamlakatlar tajribasi tahlil etilgan.

Ta’lim doirasidagi davlat siyosati mamlakat konstitutsiyasi va ta’lim to‘g‘risidagi qonunida o‘z aksini topgan gumanizm va demokratiya g‘oyalari asosida qurilgan. Bu hujjatlarda ta’lim insonni davlat, jamiyat va shaxsning o‘z manfaatiga maqsadli yo‘naltirilgan o‘qitish va tarbiyalash jarayoni ekanligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Rossiya ta’limining tarkibini o‘quv dasturlari va turli pog‘onali davlat standartlari hamda yo‘nalishlari, shuningdek boshqaruvchi tashkilotlar – ta’lim tizimidan tashqari va ta’lim tizimiga bo‘ysunuvchi muassasalar tashkil etadi. Maktabgacha ta’lim Rossiya Federatsiyasi o‘qitish tizimining birinchi pog‘onasidir. Eng kichik yoshdagi bolalar uchun ham ta’lim olish imkoniyatini berish g‘oyasi 1918 yilda «Yagona mehnat maktabi to‘g‘risidagi Nizom» vujudga kelgandan so‘ng paydo bo‘lgan. Nizom qabul qilingan kundan boshlab har bir bola tug‘ilganidan boshlaboq o‘qish huquqiga ega bo‘lishi mumkinligi kafolatlangan. Bugungi kun ta’lim standartlari «Bolalar huquqlari xalqaro Konvensiya»sida ifodalanib, unda quyidagilar ta’kidlanadi:

- bolalar ta’lim olish maskanlariga qatnash imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak;
- kattalar bolalarga o‘qish faoliyati uchun sharoit yaratib berishlari lozim;
- ta’lim o‘z ichiga kichik odamni jamiyat doirasida o‘z hayotini tushunib yetishga tayyorlash uchun barcha kerakli sharoitlarni qamrab olgan bo‘lishi zarur;
- o‘quv jarayoni qatnashchilarining o‘zaro harakatlari bolani hurmat qilishni ifodalashga asoslangan bo‘lishi kerak.

Bunday yondashuv ingliz ta’limi tarixiga asoslanib, uning rivojiga Russo, Frebel, Montessori ta’sir ko‘rsatganlar. Ular bolaning individualligini rivojlantirish va mustaqilligini himoya qilish kerak, deb hisoblaganlar. Maktabgacha tarbiyaning asosiy maqsadlari: har bir bolaning ehtiyoji va uning manfaatlarini qondirish, bolalar o‘rtasidagi farqni hurmat qilish. Bunda bola o‘qish uchun ichki intilishga ega, qiziquvchan va tabiatan serg‘ayrat, deb taxmin qilinadi. O‘qitish bolaning o‘zi taklif qilgan o‘yin davomida olib borilishi kerak. Ustozning asosiy vazifasi bolaga uqtirish

yo‘li bilan emas, balki o‘yinni qo‘llab turish, unga tadqiqot o‘tkazish uchun turli materiallar taqdim etishdan iborat. Buyuk Britaniyaning maktabgacha ta’lim tizimini o‘rganish bo‘yicha Yu.Kvong katta tadqiqot ishlarini olib borgan. U bolalar bog‘chalari xodimlari va ota-onalar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazgan, bolalar bog‘chalari faoliyatini kuzatgan. Tadqiqot o‘tkazish uchun erkin ravishda 10 ta maktabgacha ta’lim muassasasi tanlanib, ulardan har birining ikki guruhida muntazam besh kunlik uzluksiz kuzatuv olib borilgan. Ingliz bolalar bog‘chalar guruhlarida 25 nafardan ortmagan miqdorda bola tarbiyalanadi (tarbiyachilar va bolalar soni birga o‘n nisbatda olinadi).

Natijalarning ko‘rsatishicha, ingliz pedagoglarining 75 foizi bolalarni ta’lim olishga qiziqtirish uchun tashqaridan motivatsiya qilishni noma’qul deb hisoblaydilar (masalan, bolalar o‘rtasida musobaqalashish shaklini). Bunday pozitsiya negizida ilmiy asoslangan ma’lumotlar yotadi. Masalan, M.Lepper va D.Grin tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rasm chizish (bolalar bunga juda qiziqadilar) uchun mukofotlanganlari misoli keltirilgan. Shundan so‘ng bolalar bo‘sh vaqtida o‘zicha rasm chizishni xohlamay, faqat mukofot uchun rasm chizishni istab qolganlar. Boshqacha qilib aytganda, bolalarda ichki motivatsiya yo‘qolib, uning o‘rnini tashqi motivatsiya egallagan. Ingliz bolalar bog‘chasida bolalar uzoq muddat mustaqil shug‘ullanadilar, tarbiyachi esa ularni chetdan kuzatib boradi. Umumiy vaqtning faqat 15 foizi pedagog raxbarligida guruh ko‘rinishda o‘qitishga ajratiladi. Bunday o‘qitish rivojlanish darajasi bir-biriga teng bolalardan tuzilgan kichik guruhlarda o‘tkaziladi. Shu yo‘l bilan maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishini inobatga olish qoidasi amalda qo‘llaniladi. Deyarli hamma tarbiyachilar bolalarning ham rivojlanishi, ham ruhiy shakllanishi darajasi diagnostikasi uchun mazmuniy-rolli o‘yinlar, rasm chizish va narsalar yasash usulidan foydalanish kerak, deb hisoblaydilar. Amalda ingliz bolalar bog‘chalarida (amaldagi til va matematika bo‘yicha majburiy mashg‘ulotlardan tashqari) suv, qum bilan o‘yinlar va harakatli o‘yinlar orqali tadqiqot faoliyatiga katta ahamiyat beradilar. Mazmuniy-rolli o‘yinlarga pedagoglarda deyarli vaqt qolmaydi. Qanday qilib tarbiyachi bo‘lib ishlash mumkin?

Bolalar bog‘chasida ishlashga ruxsat olish uchun alohida tegishli tayyorgarlik qilish lozim. Bu tayyorgarlik yo uch yil asosiy va bir yil qo‘srimcha o‘qishdan yoki to‘rt yil turli ta’lim tuzilmalarda tahsil olishdan iborat. Tarbiyachilarning atigi 20 foizi bakalavr maqomiga ega. Pedagog yordamchisi yoki enaga bo‘lish uchun maxsus 15 soatlik tayyorlov dasturi o‘qishlari kerak. Bunday o‘qishni hozirgi kunda ko‘payib borayotgan ta’lim assotsiatsiyalarida o‘tash mumkin. Buyuk Britaniyadagi mutaxassislar tayyorlash tizimining shubhasiz afzalligi uning yuqori darajada amaliyotga qaratilganligi. Bu borada 50 foiz mashg‘ulotlar maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘tkaziladi (qiyoslaganda Ispaniyada bu ko‘rsatkich 12 foizni, Italiya va Daniyada 20 foizni, Fransiya, Belgiya va Niderlandiyada 25 foizni, Germaniya va

Shvesiyada 30 foizni tashkil etadi). Mutaxassislarning baholashicha, Buyuk Britaniyada maktabgacha tarbiya muassasalarida yaqin 10 yil ichida ish joylari 250000 taga ko‘payadi. Ota-onalarga yordam. 1997 yilda Buyuk Britaniyada kam ta’minlangan oilalar bolalariga yo‘naltirilgan erta qo‘llab-quvvatlash markazlarini tashkil etish dasturi joriy etila boshlandi. Bu markazlar bolani parvarishlash va o‘qitish uchun barcha zarur xizmatlarni amalga oshiradi va bu jarayonga ota-onalar ham jalb etiladi. 1998 yilda bunday markazlar soni 11 ta edi, 2001 yilga kelib ularning soni 35 taga yetdi, bugunga kelib esa 100 dan ortiq.

Bunday muassasa qanday ishlashini yaxshiroq tushunish uchun, shunday markaz rahbarlaridan biri fikrini keltirish o‘rinli. Uning aytishicha, ijtimoiy past tabaqaga mansub yosh ona farzandini ilk bor markazga olib kelganida bola uchun barcha qulayliklar muhayyo bo‘lgan, bolalar uchun yumshoq mebeldan tortib o‘yinchoqlargacha bo‘lgan barcha zarur narsalar bilan ta’minlangan tibbiy punkt mavjud. «Biz ota-onalar haqida ham unutmaymiz, bolalar mutaxassislar ko‘rigidan o‘tgunga qadar, ko‘ngilli yordamchilar mammuniyat bilan ota-onalarga qahva damlab berishadi, psixologik yordam ko‘rsatishadi yoki biror-bir film tomosha qilishni taklif etishadi. Ona boshqa ota-onalar bilan suhbatlashishi, markaz qoshidagi Ochiq universitetdagi mashg‘ulotlarga qatnashishi mumkin». Markazimiz ota-onalarga turli xizmatlarlarni taklif etadi – o‘yinchoqlar «kutubxonasi» (unga ota-onalar mudirlilik qilishadi), ajrashgan ota-onalar guruhi, 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarni parvarishlash guruhi, 3-5 yoshdagi bolalar guruhi. Onalarning 85 foizi va otalarning 60 foizi bola rivojlanishini o‘rganish guruhlarida qatnashadilar. Bola bilan qanday shug‘ullanish kerak va uni qanday yaxshiroq tushunish mumkinligini bilish uchun ota-onalar mashg‘ulotlar videoyozuvlarini ko‘radilar va ota-onalarga berilgan «uy vazifalarni» tahlil qilalar», deydi markaz rahbari.

Yapon oilalarida odatda bola hech qachon jazolanmaydi va unga «yo‘q» deyilmaydi. Buning o‘rniga oilada – bu harakatingdan ota, ona yoki yana biror kimsa ranjishi mumkin, degan ibora ishlataladi. Shunga o‘xhash, tarbiyalash maqsadida, bolaga bunday ishing kimadir yoqmaydi, deyish ham mumkin. Va bu «kimdir» bu yaponning butun hayoti davomi uning yonidaligi xis etiladi, va yaponlar uchun jamoat fikri juda muhim. Oiladagi asos solingan tarbiya asoslari bolalarning jamoaviy hamkorligi sharoitida rivojlantiriladi. Tarbiyachi bolalarga o‘zaro munosabatda bo‘lishni o‘rgatish jarayonida alohida kichik guruhlar – «xan» tuzadi. Bu guruhlarda bolalar o‘zaro fikr almashish va mustaqil bo‘lish ko‘nikmalarini o‘rganishadi. Bolalarga guruhdagi boshqa qatnashchilarning fikriga qulq solib, hisobga olgan xolda o‘z fikrini bildirishga o‘rganadilar. Bolalar o‘z guruxlarida o‘zlari qulayliklar va tartib yaratadilar, yig‘ishtirib gullarni parvarish qiladilar, xatto mustaqil ravishda o‘zlariga ovqat ham tayyorlaydilar. Shu yo‘l bilan bolalarni guruhlarda harakat qilishga o‘rgatadilar. Bolalarning o‘rtasidagi kelishmovchiliklar yoki yoqalashishlar paydo

bo‘lganda tarbiyachi darrov aralashib, o‘rtaga tushmaydi, chunki bolaning o‘zi kelishmovchilikni xal qila bilishni o‘rganishi kerak va bu unga kuchliroq bo‘lishda yordam beradi.

Yaponiyada maktabgacha tarbiya jarayonida teztez tarbiyachi va guruhlar o‘zgartirib turiladi. Bu bolani bir xil odamlarga, bir xil sharoitga o‘rganib qolmay jamiyatda yashashga o‘rgatish uchun zarur. Bolalar maktabda yozishni, o‘qishni o‘rganadilar, lekin bolalar bog‘chasiga qatnashdan asosiy maqsad bolani ijtimoylashtirish. Uni guruhlarda yashash, guruh manfaatlari bilan yashashga o‘rgatishdir. Yaponiyada maktabgacha tarbiya beshta yo‘nalishni o‘z ichiga qamrab olgan, bular: – ijtimoiy munosabatlar; – salomatlik, havfsizlik; – til; – atrof muxit; – his-tuyg‘ularini ifodalash. Maktabgacha va maktab ta’limi sohalardagi bunday davlat siyosatiga tufayli yapon bolalariga sport bilan shug‘ullanish va chiniqish ko‘nikmalarini singdiriladi. Tez-tez Yaponiya ko‘chalarida oktyabr oyida bog‘cha rangidagi kalta shim kiygan bolalarni uchratish mumkin. Bu bolalarda sovuq kunlarda oyoq yalang yurish ko‘nikmalarini singdirishni amaliyotidan darak beradi. Bolalarga oilada va jamoatda muomala qilishni, o‘ziga ishonishni, yangi ko‘nikmalarni egallahsga, xalq ertaklarini va kitoblarni o‘qib tilga va madaniyatga o‘rgatadilar.

Yaponiyadagi maktabgacha tarbiya tamoyillari – sog‘lom, mustaqil, har tamonlama rivojlangan, bilimga ega va o‘z madaniyati hamda Vatanini sevuvchi jamiyat a’zosini yaratishga qaratilgan. Bolalar bog‘chalaridagi mashg‘ulotlar. Bolalar bog‘chalarida ta’lim dasturlari ham inobatga olingan, yozish va o‘qishdan tashqari bolalarga qo‘sinqaytish o‘rgatiladi, sport musobaqalari o‘tkazilib, muntazam sayrlarga (poxodga) chiqib turiladi. Ammo bular bilan bir qatorda bu tadbirlarni o‘tkazilishidan maqsad - bolada xamjihatlik, jamoada yashash hislarini rivojlantirishdan iborat. Qo‘sinqaytish, xor (jamoada) aytilishi kerak, yakkaxon qo‘sinqchi qo‘llanilmaydi, musobaqa o‘tkazilayotganda yoki hamma yoki guruh g‘oliblikka erishiladi, va mutlaqo yakka g‘olib emas. Jamoa bilan muntazam ravishda bir kunlik sayrga chiqishdan maqsad bolani chidamlikka o‘rgatish va o‘zi atrofidagi hududni o‘rganish. Yapon bolalari tabiatni juda sevadilar va chuqur his etadilar. Balkim, aynan shuning uchun ham Yaponiyada turli daraxtlar, tabiat hodisalariga bag‘ishlangan milliy bayram va festivallar ko‘p bo‘lsa kerak.

Yoshlikdan go‘zallikni sevishni va tabiatni his etishni o‘rgatilgan yapon bolalar bu tuyg‘ular bilan umrbod yashaydilar. Bolalarni tarbiyalashdagi bunday ijobiy qarashlar bilan bir vaqtda, davlatdan tashqarida Yaponiyada jamoaviylik hislatlari juda rivojlanib, shaxsiyat tushunchalarini inkor etiladi fikrlar tarqalgan. O‘zini shaxs sifatida namoyon etadigan inson Yaponiya jamiyatida qo‘llab quvvatlanmaydi. Lekin bu Yaponiyada hamma birdek hisoblanib, shaxsiyat inkor etiladi degani emas. Yaponiya yoshlarini fotosuratlarini ko‘rsangiz u yerda yetarlicha rang-barang, o‘ziga

ishongan yigit-qizlarni ko'rasiz, lekin ular guruh bo'lib yashaydilar va bu ularning ulg'ayshlaridagi ma'lum pog'ona demakdir.

Maktab va institutlarni tugatgan rang-barang va o'zgacha fikr yurituvchi yoshlar qonunlarga itoat etuvchi va mehnatsevar yapon fuqarolari qatoriga qo'shilib ketadilar. Xulosa tariqasida aytish joizki xorijiy mamlakatlarning maktabgacha ta'lismiz tizimlarini o'rganish, ularning ilg'or tajribasini tahlil etish va respublikamiz sharoitiga moslashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish mamlakatimiz maktabgacha ta'lismiz tizimini takomillashtirib zamonaviylashtirishga imkon yaratadi.

### **3. Horijiy mamlakatlarning maktabgacha ta'lismiz tizimlarini o'rganish**

Rossiyadagi maktabgacha ta'lismiz tizimi doimo o'zgaruvchan holatda bo'lib, umuntazam ravishda yangilanadi, ko'rinishini o'zgartiradi va mukammallahib boradi. Bola uchun ilk ustozlar uning ota-onasi hisoblanadi. Ular bolalarni go'dakligidan jismonan, intellektual va axloq masalalarida tarbiyalashlari lozim. Maktabgacha tarbiya muassasalari (MTM) faoliyati oilalarga bilim olish va tarbiyaning keyingi bosqichida yordam berishga qaratilgan. Ayrim mutaxassislar bolalar bog'chalariga hojat yo'q, maktabgacha tarbiya esa to'liq otaonalar zimmasiga yuklatilsin va ularning o'zları bolani 1-sinfga qaerda va qanday qilib tayyorlash yo'lini hal qilsinlar, deb ta'kidlaydilar. Lekin statistik ma'lumotlarga ko'ra, MTMlар xizmatidan aksariyat ota-onalar foydalanadilar. Shuning uchun ta'lismiz rivojlantirish strategiyasi kelajakda Rossiya maktabgacha tarbiya modernizatsiyasini birinchi darajali masalalaridan biri deb belgilaydi. Namunaviy nizomlarga binoan, bolalar ta'lismiz muassasalari besh turga bo'linadi: – rivojlanishning bir-ikki yo'nalishini amalgalashirishni muhim deb bilgan bolalar bog'chalar; – psixikasi normadan og'ib ketgan bolalarni malakali korreksiyalashga qaratilgan kompensatsiyalovchi turdagini bog'chalar; – tarbiyachi nazorati ostida bolalar bilan sog'lomlashtirish mashqlari o'tkazib boriladigan bolalar bog'chalar; – o'z hududida umumiy rivojlanish, sog'lomlashtirish va kompensatsiyalovchi guruhlari turli variantlarda jamlangan bolalar bog'chalar; – bolalarni erta rivojlantirish markazlari – kichkintoylar sog'lomlashishi, yangi bilimlar va qobiliyatlarni egallashi, ruhiy madad olishi mumkin bo'lgan bolalar bog'chalar.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lismiz ko'p funksionallik, rang-barang rejalahtirish, ustuvor rivojlantirish yo'nalishi va turli dasturlashni aniqlash erkinligi bilan ifodalanadi. Rossiyaning maktabgacha ta'lismiz tizimi «O'quv jarayonni modernizatsiyasi Konsepsiysi» ga asoslangan. Bu konsepsiyada ta'lismiz sifat ko'rsatkichlarini ta'minlashga muhim ahamiyat berilgan. Bu hujjat ta'lismiz to'g'risidagi qonunga, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasiga, MTM to'g'risidagi Namunaviy nizomlarga va Ta'lismiz vazirligining boshqa qarorlariga asoslangan. Bu Konsepsiyada alohida tashkilotlarning foydali tajribasi asosida o'qitish mazmunini yangilash

kerakligi haqida so‘z yuritiladi. Nazariy tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, maktabgacha ta’lim mazmunini to‘ldirishga stereotip yondashishlarni o‘zgartirish kerak, ta’lim berish jarayoni esa quyidagi tamoyillar ketmaketligi asosida ko‘rilishi lozim: – o‘qitishning rivojlantiruvchi xarakteri asosida o‘qitishni olib borish bolalarning yashirin va salohiyatlari xislatlarini namoyon qiladi; – tizimli ta’lim bolalarga hodisalar, o‘rganilayotgan ob’ektlar va hayotiy qadriyatlarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlashga yordam beradi; – bolaning rivojlanishi uning his-tuyg‘ulari va yoshiga mos bilim olishning ratsional shakllariga tayanadi; – ko‘p madaniyatli tarbiyaning mazmunan kichkintoylarni madaniyat va o‘zining mahalliy hamda boshqa millat va elatlarning urf-odatlarining o‘ziga xosligiga yaqinlashtirish, boshqalar fikriga chidamliroq bo‘lish, o‘zining noroziligi, g‘azablanishi va xafaligini me’yorlangan holda ifodalashdan iborat; – salomatligining sog‘lom turmush tarzi, gigiena qoidalariga amal qilish va sport bilan shug‘ullanish ehtiyojiga asoslanadi.

Maktabgacha ta’limning ingliz tizimi Buyuk Britaniya noyob madaniyat va an’analar davlati hisoblanadi. Ingliz ta’lim berish tizimi dunyodagi eng yaxshi tizimlardan biri deb hisoblanadi, Britaniya ta’lim dasturlari eng yuqori standartlarga mos keladi. Buyuk Britaniyada maktabgacha ta’lim berish kambag‘al ishchi oilalar bolalariga ko‘ngilli yordam berish harakatiga asosan vujudga kelgan. 1816 yilda Robert Ouen ilk bor Shotlandiyada o‘z fabrikasi ishchilarining farzandlari uchun ilk bor bolalar bog‘chasini ochgan. XX asr boshlarida opa-singil Makmillanlarning tashabbusi bilan bir nechta bolalar bog‘chalarini ochilib, ularda asosan kam ta’minlangan oilalar farzandlarining salomatligi va yaxshi ovqatlanishlari uchun g‘amxo‘rlik ko‘rsatilgan. Rivojlanish bosqichlari. 1988 yilda «Ta’lim to‘g‘risida» gi qonuni kuchga kirib, unda nafaqat ta’lim standartlari, balki bolalarni maktabga qabul qilish vaqtida ruhiy rivojlanish darajasiga bazaviy baho berish ham belgilangan. Angliya, Shotlandiya va Uelsda majburiy ta’lim 5 yoshdan, Shimoliy Irlandiyada esa 4 yoshdan boshlanadi. O‘qitishni boshlash muddati Yevropada eng erta deb hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim ustuvor yo‘nalish toifasiga 1996 yilda maktabgacha ta’lim tizimi haqidagi qonun qabul qilingandan keyingina tushgan. Uni qabul qilishdan asosiy maqsad bolalar bog‘chalarida ta’lim berish sifatini yaxshilash, ta’lim standartlarini oshirish va erta ta’lim berishni moliyalashni oshirishdan iborat. Taklif qilingan tizim doirasida o‘ziga xos o‘quv rejasi o‘rnatalib, uning bajarilishi maktabgacha ta’lim muassasasining davlat ta’lim tizimi talablariga javob berishi lozim. Maxsus ehtiyojlarga muhtoj va ingliz tili ularning ona tili bo‘limgan bolalarga alohida e’tibor berilgan. Shuni ta’kidlash joizki, bolalar tarbiyasi va ta’lim olishi o‘rtasidagi farq hamma mamlakatlarda mayjud emas. Buyuk Britaniyada esa ikkalasi ham ahamiyatlari va zarur, deb tan olingan. Birlashgan Qirollikda bunday xizmat ko‘rsatuvchi 25 turdagি muassasalar faoliyat olib boradi va shuning uchun bu yerdagi ta’lim tizimi turlichay va ahamiyati ham teng emas. 1997 yildan Angliyada erta ta’lim islohoti amalgalashtiriladi.

oshirilmoqda. Bu davrgacha erta ta'lim olish va tarbiyalashga yondashish tizimlashtirilmagan edi – maktabgacha tarbiya muassasasi xohlaganicha o'qitish dasturi yoki xizmat ko'rsatish turlarini qo'llashi mumkin edi. Bu holat yagona ta'lim tizimiga jamlanmagan «noyob» yondashishlarning tarqalishiga olib keldi. O'qitish uchun xizmatlar sifati o'zgarib turar edi. Angliyadagi 3-4 yoshdagi bolalar uchun maktabgacha ta'lim Yevropada eng yaxshilardan biri deb tan olingen bo'lsa-da, Buyuk Britaniyada o'tgan asrning 90-yillar boshiga kelib undan faqat 20 foizgina bolalar foydalanan edilar. Qabul qilingan islohot 3-4 yoshdagi bolalar tarbiyasi uchun yagona ta'lim dasturi ishlab chiqarilishiga yo'naltirilgan edi. 1988 yilda maktabgacha ta'limni rivojlantirish uchun 15 mlrd. dollar miqdorida mablag' sarflangan.

Shu bilan birga 1997 yilga kelib Buyuk Britaniyada maktabgacha ta'limning birorta ham xususiy tizimi bo'limgan bo'lsa-da, hozirga kelib ularning soni 20 tadan oshib ketdi. Bolalar bog'chasi faqat davlat ro'yxatidan o'tgandan keyingina davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Bolalar bog'chalarida inspeksiya mustaqil ekspertlar tomonidan o'tkazilib, natijalari ochiq axborot vositalarida e'lon qilinadi. 1977 yilgi davlat tekshiruvi natijalariga ko'ra 77 foiz maktabgacha ta'lim muassasalari qabul qilingan standartlarga mos kelmagan: bolalar bog'chalarida batafsil ta'lim rejali mavjud bo'limgan, bolalar rivojlanishining monitoring tizimi taqdim etilmagan, ta'lim dasturlarining turli jihatlari o'rtasidagi aniq bog'lanish belgilanmagan. Ekspert hisobotlarining 40 foizida pedagoglarning bolalar rivojlanishining holati to'g'risida tushunchalar yetarli emasligi ko'rsatilgan; bola tomonidan taklif etilgan faoliyat va ta'lim dasturiga mos ravishda pedagog tomonidan tashkil etilgan faoliyat o'rtasidagi o'zaro harakatning mutanosib tizimi mavjud emasligi. Bugungi kunda bunday muammolar qisman o'z yechimini topgan, lekin bolalar bog'chasi bitiruvchilarining tayyorgarligi va maktablarning maktabgacha ta'lim muassasasi bitiruvchilariga qo'yilgan haddan tashqari oshirilgan talablari orasidagi katta farq «Bola qanday rivojlanishi kerak?» degan masalaga nazariy nuqtai nazar va pedagoglarning amaldagi yondashuvi o'rtasida bir qator kelishmovchiliklar tug'dirmoqda. Shuni ham aytib o'tish lozimki, Buyuk Britaniyaning hamma yerida maktabgacha ta'lim muassasalarida bir xil ta'lim standartlari doirasida ish olib borilmaydi. Masalan, Shotlandiyada erta ta'lim sohasidagi islohotlar - erta qo'llab-quvvatlash markazlari bilan bog'liq emas (bu haqida quyida ma'lumot berilgan). Undan farqli ravishda ochiq seminar va konferensiyalar o'tkazilib, u yerda pedagoglar ta'lim jarayoniga yondashuv xususiyatlarini namoyon etish yo'llari bilan tajriba almashadilar. Ta'limga yondashuv. Buyuk Britaniyada odatda ta'lim berish o'rganilayotgan predmet yoki o'qituvchiga emas, balki bolaga yo'naltiriladi.

Maktabgacha tarbiya masalalariga, xususan yosh bolali ota-onalarga diqqat-e'tibor qonun hujjalarda ham o'z aksini topdi. Biror-bir korxonada bir yildan ortiq ishlagan har bir ayol bunday huquqqa ega. Shu bilan birga ularga 5 yillik muddatga ish

joyini saqlab qolish kafolatlanadi. 60 foizdan ko‘proq onalar dekret ta’tilidan so‘ng o‘z ish joylariga qaytadilar. Angliyadagi maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar tarbiyasi uchun to‘lov Yevropada eng ko‘pni tashkil etadi. Kam ta’minlangan oilalarga yordam tariqasida kredit dasturi ishlab chiqilgan va unga asosan haftasiga kamida 16 soat ishlaydigan ota-onalar 14 yoshgacha bo‘lgan bitta farzandi uchun 105 AQSh dollari miqdorida, ikki va undan ko‘p shu yoshdagi bolalari uchun 158 AQSh dollar miqdorida kredit puli olishlari mumkin. Oilalar zimmasiga bolalarni parvarishlash va ta’lim berish uchun asosiy moliyaviy majburiyat yuklatiladi. Bepul va hammabop tarbiya bilan esa 3-4 yoshdagi bolalar bilan kuniga ozgina vaqt (bir necha soat) shug‘ullanish mumkin. Shu bilan birga Buyuk Britaniyada oilada faqat yoki ota, yoki ona bo‘lgan oilalar soni Yevropa miqyosida eng ko‘p foizni (20%) tashkil etadi. Bunday ota-onalarning ko‘pchiligi (60%) ishsizlar. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, har uchinchi bola (4,3 million bola) muhtojlikda yashaydi (bu ko‘rsatkich ota-onalarning daromadi aholining o‘rtacha daromadidan kam bo‘lganda aniqlangan). Quyi (pastki) ijtimoiy-iqtisodiy tabaqa oilalaridagi bolalarni qo‘llab-quvvatlash erta qo‘llab-quvvatlash markazlaridan tashqari «Qat’iy start» dasturi yordamida amalga oshiriladi. Bu dasturni tashkil etuvchi qismlari: mutaxassislar bilan bolalarning uyida uchrashuvlar, bolaning o‘ynash faoliyati yuqori sifati xislatini qo‘llab-quvvatlash, bolaga zarur parvarish berishni ta’minlash, maxsus ehtiyojlarga muhtoj bolalarga alohida e’tibor qaratish.

*Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun dasturlar.* Buyuk Britaniyadagi maktabgacha ta’lim o‘quv rejasida nafaqat umumiyligiga jarayoniga urg‘u beriladi, balki boladagi o‘qish va hisoblash kabi ko‘nikmalarga alohida ahamiyat beriladi. Bunda 4-5 yoshdagi bolalar rivojlanishning olti yo‘nalishidagi aniq ko‘nikma va bilimlari belgilandi: shaxsiyatlik; ijtimoiyemotsional; kommunikativ; xabardorlik; matematik; jismonan; ijodiy. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko‘p o‘ynashlari kerak, lekin adabiyot va matematikani bilish doirasidagi talablar shunchali yuqoriki, o‘yin uchun vaqt qolmaydi. Masalan, savodhonlik borasida gap ketganda besh yasharlik bolalar quyidagilarni bilishlari kerak: – so‘z boshi va oxiridagi tovushlarni aniqlash; – tovush va harflarni ajrata bilish; – alifbodagi hamma harflarni aytish; – oddiy so‘zlar va gapni o‘qish; – o‘z ismini yozish; – oddiy so‘zlarni yozishda fonetika bilimlaridan foydalanish. Bunday maqsadlar yuqori texnologiyali dasturlar yaratilishiga olib keladi. Ularda har bir mashg‘ulot uchun nafaqat pedagog tomonidan aniq harakatlar ketma-ketligi, balki olinadigan natijalar ham bayon etilgan. Germaniyada maktabgacha ta’lim tizimi1 Germaniya qonunlarida maktabgacha ta’lim olishning bepul huquqi belgilangan. Bolalarni 4 oyligidanoq yasliga olib borish mumkin. Ko‘pchilik nemislar bu huquqdan foydalanadilar. Nemislarda keksa avlod vakillari bo‘lmish buvi va buvalar neveralar tug‘ilgandan so‘ng nafaqaga chiqib, ularga qarash majburiyatlari tushunchasi yo‘q. Shuning uchun ota-onalar bolalarini bolalar bog‘chalari va yasliga

berishga majbur bo‘ladilar. Maktabgacha tarbiya muassasalarining (MTM) rang-barang shakllari va turlari hayratlantiradi. Eng qiziqarli bolalar bog‘chalari turlari quyidagicha:

1. Waldkindergarten (nemischa Wald so‘zidan – o‘rmon, Kindergarten – bolalar bog‘chasi). Bunday bolalar bog‘chalarini yaratish fikri Skandinaviyada boshlangan. Ko‘pincha bunday bog‘chalar o‘rmonda joylashadi. Bolajonlar doimo ochiq havoda bo‘ladilar, daraxtlar va boshqa o‘simliklarni o‘rganadilar, tabiiy materiallardan turli narsalar yasaydilar. Bolalarga tabiatni sevish va uni asrab-avaylash o‘rgatiladi.

2. Bauernhofkindergarten (nemischa Bauernhof so‘zidan – dehqon xovlisi, qo‘rg‘oni; Kindergarten – bolalar bog‘chasi). Bunday bog‘chalar dexqon xo‘jaliklarida, fermalar yoki ularga yaqin yerlarda joylashgan bo‘ladi. Bolalar kuchlari yetguncha fermerlarga mollarni boqishda, dala va bog‘larda sabzavot va mevalar o‘stirishda yordam beradilar.

3. Reggio-Kindergarten. Bunday bolalar bog‘chalarini yaratish konsepsiysi Italiyaning Rejio-Emilio shahrida paydo bo‘lgan va nomi ham shundan olingan. Bunday maktabgacha tarbiya muassasasi bozor (yarmarka) maydonini eslatuvchi – o‘rtada katta bir xona (xoll) va undan shaharchaning turli «mavzelariga» – kichik xonalarga chiquvchi inshootni eslatadi. Bunday turdagи bog‘chalarda bolalar joylashgan muhit asosiy tarbiyachi deb ataladi. Har kuni ertalab bolalar tarbiyachi bilan katta xonada yig‘ilishib, kun rejasini maslahatlashadilar, so‘ngra xonalarga tarqalishadi. Bitta xona qurilish va turli konstruktorlar yig‘ish xonasiga aylantiriladi. Bu yerda bolalar kubiklar o‘ynashi, konstruktorlar yig‘ishi mumkin. Yana rasm chizish xonasi ham bor, odatda u yerda bo‘eqlar va devorlarga vatman qog‘ozlar osib qo‘yilgan. Bolalarga maxsus kiyim kiygazib ko‘yiladi va ular xohlagan yerlariga – devorlar, pol, bir-birlariga rasm chizishlari mumkin. Bu yerda hunarmandchilik, musiqiy va boshqa xonalar ham bor. Bunday bog‘chalarda tarbiyachilar bolalarga faqat atrofdagi joyni o‘zlashtirishlarida ko‘maklashadilar.

4. Freinet-Kindergarten. Maktabgacha pedagogikaning bu yo‘nalishi o‘z nomini bolalar tarbiyasiga o‘ziga xos yondashish usulini ishlab chiqqan italiyalik oilaviy juftlik familiyasidan olingan. Bu yo‘nalishning asosiy tamoyili - bolaning butunlay erkinligi va mustaqilligidir. Fraynet-bog‘chasida bolalar nima qilishlari, qanday o‘yin o‘ynashlari, nima bilan shug‘ullanishlari, qachon ovqatlanishlari va uxlashlarini o‘zlari hal qiladilar. «Bolalar konferensiyasi» deb atalmish yig‘ilishlarda bolalar MTM doirasida hulq-atvor qoidalarini o‘zlari belgilashadi. Bunday bog‘chalarda ijod qilish, syujet-rol o‘yinlari, eksperimentlar, tabiat qo‘yni yoki shaharning korxona va tashkilotlariga ekskursiyaga borishlarga katta ahamiyat beriladi.

5. Integratsion bolalar bog‘chalari. Bunday turdagи MTMlarda sog‘lom bolalar bilan birgalikda jismonan va ruhiy nosog‘lom bolalar birgalikda tarbiyalanadi. Bunday sharoit oddiy bolalar uchun chidamlik, bag‘rikenglik va hurmat qilishni o‘rganishga

ajoyib imkoniyat, deb qaraladi. Imkoniyatlari cheklangan bolalar jamiyatdan ajralgan holatda bo‘lmaydilar, o‘z tengdoshlari bilan muloqot va hamjihatlikda bo‘lishni o‘rganadilar. Shunday bog‘cha va maktablarning soni ko‘pligi Germaniyada nogironlarning yashashi, ta’lim olishi va o‘zini namoyon qilishi uchun qulay sharoitlar yaratadi.

6. Internatsional bolalar bog‘chalari. Bunday MTMlar emigrantlar uchun yaratilgan bo‘lib, ko‘pincha ularni emigrantlarning o‘zлари farzandlari uchun tashkil etadilar. Germaniyada turk-nemis, yahudiy, rus-nemis bolalar bog‘chalari juda ko‘p. Bu muassasalarning konsepsiysi bilingvallik tamoiyiliga asoslangan. Ya’ni, guruhlarda doimo bolalar bilan ona tilida so‘zlovchi tarbiyachi bilan birga nemis tilida so‘zlovchi tarbiyachi ham bo‘ladi. Bunda bolalar ham ota-onalarining tilini, ham nemis tilini o‘rganadilar. Rus-nemis bog‘chalarida ko‘pincha Rossiya mualliflarining dasturlaridan foydalaniladi. Unda Rossiyada nishonlanadigan an’naviy – Maslennitsa, 8 mart, Yangi yil kabi ko‘p bayramlarga bag‘ishlangan mashg‘ulotlar ham bor. Shuningdek, Germaniyada Valdorf bolalar bog‘chalari va Montessori tizimida ishlaydigan bolalar bog‘chalari ham mavjud. Agar o‘rta statistik nemis bolalar bog‘chasini olsak, uning faoliyati loyihamar tamoyili asosida tashkil etilganligi namoyon bo‘ladi. Masalan, «Kasb» loyihasi davrida bolalar tarbiyachi bilan ekskursiyalarga boradilar, turli narsalar yasaydilar, teatrlashtirilgan sahnalar qo‘yadilar, pechene pishiradilar, loydan narsalar yasaydilar va hokazo. Bolalar stulchalarda o‘tirib tarbiyachini eshitadigan turdagи mashg‘ulotlar yo‘q. Bolalarga ko‘perkinlik beriladi. Ular istagan narsani qilishlari, kiyimlarini iflos qilishlari, butun maydonda sakrashlari va yugurishlari mumkin.

Bolalar bilan ishlashga bunday yondashishning ko‘p ijobiy va salbiy tomonlarini topish mumkin. Lekin ota-onalar oldida konsepsiya, nazariya va g‘oyalardan iborat katta tanlash huquqi bor. Ular farzandlarini bola uchun eng qulay bog‘chaga berishlari mumkin.

#### *Yaponiyada maktabgacha ta’lim.*

Yaponiyada bolalarni tarbiyalash metodi to‘g‘risida quyidagi keng tarqalgan iborani kelti1 Bilingval o‘qitish – ta’lim jarayonini bir necha tilda olib borish mumkin: «Bola 5 yoshgacha – qiro, 5 yoshdan 15 yoshgacha – qul, 15 yoshdan keyin esa barcha bilan teng huquqli inson».

Bu iboraning turli talqini boshqa millatlarda ham uchraydi. Albatta, bu falsafiy iborani boricha qabul qilish shart emas. Lekin bolaning hayoti bir necha davrlarga bo‘linadi va bulardan birinchi davrida bola hammani o‘ziga maftun etadi, uni asrabavaylashadi, erkalashadi. Yoshi ulg‘aygach bolada lazzatlanishdan tashqari o‘zining harakatlari uchun mas’uliyat va qator majburiyatlar paydo bo‘ladi. Ulg‘ayishning ma’lum yoshiga yetgach kechagi bolakay bugun jamiyatning teng huquqli va teng

maqomga ega a'zosiga aylanadi. Buning hammasi Yaponiyaning ta'limga tizimida bir marom va ketma-ketlikda kuzatilib boriladi.

Ta'limga tizimining, shu jumladan maktabgacha ta'limga rivojlanishi tarixi uzoq o'tmishning Meydzi davriga borib taqaladi. Yaponiyada 1876 yilda boy xonadon farzandlari uchun birinchi bolalar bog'chasi ochilgan. Bolalar bog'chalarining ochilishidan maqsad bolalarning aqlan va jismonan rivojlanishiga yordam beradigan o'zaro munosabatda bo'lish muhitini yaratishdan iborat bo'lган. Albatta bola tarbiyasida onaning roli turlich, lekin bolalarning o'z tengdoshlari, tarbiyachi bilan muloqoti, birga o'ynashi va birgalikda mehnat qilishi uy sharoitida erishib bo'lmaydigan natijalarga, ya'ni uning sog'lom va garmonik rivojlanishiga imkoniyat beradi. Davlat darajasidagi maktabgacha tarbiya tizimi faqat 1961 yildan keyin keng tarqala boshladi.

Bugungi kunga kelib, amalda har bir yapon bolasi bolalar bog'chasi yoki bolalarga qarash markaziga qatnaydi. Yaponiyada bolalar bog'chasi. Bolalarga nisbatan mehribonlik va muhabbat yapon jamiyati uchun muhim jihatlardan biri bo'lib bunday muhabbatning asosiy va muhim manbai ayoldir. Yakin davrlargacha yapon oilalarida ayollar o'z oilasini asrovchi, g'amxo'r xotin, mehribon ona bo'lib bolaga barkamol tarbiya berish uning vazifasi hisoblanar edi. Oxirgi vaqtda vaziyat o'zgarib, yaponlar kech turmush quryaptilar va ko'p ayollar ishlashni xohlayaptilar yoki ishslashga majburlar. Shunga qaramay yapon onalarining aksariyati bolalarni 3 yoshgacha uy sharoitida tarbiyalab, keyin ijtimoylashish uchun bolalar bog'chalariga joylashtiradilar.

Yaponiyada maktabgacha ta'limga quyidagi muassasalarda amalgalashiriladi:

- bolalar yaslisi, bolalarga qarash markazlar;
- bolalar bog'chalar;
- nogironlar uchun maxsus muassasalar.

Maktabgacha ta'limga umummajburiy bo'lmasa ham bolalar bolalar yaslilari va bog'chalari katta extiyojga ega hamda bolani bolalar bog'chasiga joylashtirish uchun avvalroq harakat qilish lozim. O'rtacha olganda bolalar bog'chasiga joylashtirish uchun 25000 bola navbatga turadi. Yaponiyada bolani bolalar bog'chasiga uch yoshdan bersa bo'ladi, yoki ko'pincha bolani 4 yoshdan beriladi. Maktabgacha o'qitish muddati 3 yil davom etib so'ngra bola boshlang'ich maktabga qabul qilinadi. Bolalar yaslisiga (bolaga qarash markazi) bolani uch oyligidan berish mumkin, lekin bunday xolat yaponlar orasida keng tarqalgan emas, chunki bunday yoshda bolani yasliga joylashtirish uchun onada juda jiddiy sabab bo'lishi kerak.

Shuningdek bunday ayol jamiyat tomonidan yaxshi ona deb baholanmaydi. Atrofdagilarning fikri esa yaponlar uchun eng asosiy deb hisoblanadi. Yaponiyada bolalar yaslisiga faqat ota-onasi ishlaydigan bolalar qabul qilinadi. Buning uchun munitsipalitetga ota-onasi ish joidan ma'lumotnomasi va oilada boshqa bolaga qarab

turuvchi oila a'zosi yo'qligi haqida hujjatlar taqdim etiladi. Bolalar yaslilari bolalarga qarab turish faoliyati bilan shug'ullanadilar va u yerda ta'lim berish dasturlari nazarda tutilmaydi hamda ular Ta'lim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligiga emas balki Sog'liqni saqlash, mehnat va farovonlik vazirligiga bo'yunsunadilar.

*Yaponiyada bolalar yaslilari.* Bolani maktabgacha tarbiya muassasiga joylashtirish masalasini, qanday muassasa (davlatga qarashli yoki hususiy) bo'lishidan qat'iy nazar, munitsipalitet hal qiladi. Meriyaga (shahar xokimiyatiga) murojaat qilgan otaonalarga bolalar bog'chalari (yaslilar) qaerda joylashganligi ko'rsatilgan atlas beriladi. Bu atlasda u yerga boruvchi sxema, maktabgacha tarbiya muassasidagi joylar soni ko'rsatilgan. Ota-onalar avvalroq bolalar bog'chasiga borishlari, tarbiyachilar bilan suhbatlashishlari va ularga yoqqan bog'chani tanlashlari mumkin, lekin xal qiluvchi natijani munitsipalitet belgilaydi va bo'sh o'rinni bo'lsa ota-onalarga bolani bog'chaga (yasliga) borish uchun ruhsat beradi.

Bolani bog'chaga yilning barcha oyidan olib borish mumkin, lekin bo'sh o'rinni soni 1 aprelga kelib ko'payadi chunki shu paytda o'quv yili boshlanib bog'chalarni bitiruvchi bolalarning bir qismi boshlang'ich maktabga yo'l oladilar. Yaponianing maktabgacha tarbiya tizimiga quyidagi turdag'i muassasalar kiradi: – davlatga, munitsipalitetga, prefekturaga tegishli; – hususiy. Shuningdek maktablar va institutlar qoshida ham bolalar bog'chalari mavjud. Ya'ni bolalar uchun bog'cha yoshidanoq uning kelajakdagi o'qish jarayoni belgilanadi. Bunday ixtisoslashtirilgan bolalar bog'cha tarbiyalanuvchisi kelajakda tegishli nufuzli maktabga keyinroq esa universitetga kirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Farzandining porloq kelajagini shakllantirishda ota-onalar maktabgacha va ta'lim muassasalarini tanlashga mantiqiy siyosat bilan yondashadilar. Bu jarayon bolani nufuzli bolalar bog'chasiga keyin boshlang'ich so'ngra eng yaxshi o'rta maktabga joylashtirish bilan boshlanadi va bola katta bo'lguncha davom etadi. Natijada bola munosib kasb egasi bo'lishi va shunga mos ish haqi olishi uchun ota-otanar bola tug'ilishidan boshlab uning ta'lim olishiga katta mablag' sarflashlari kerak. Agar oila biror bir sabab bilan bolani bolalar bog'chasiga olib bormasa, unda onaning o'zi uni maktabga tayyorlash uchun hamma kerakli bilimni o'rgatishi lozim.

Yaponianing maktabgacha ta'lim tizimining 80 foizini hususiy bolalar bog'chalari va bolaga qarash markazlari tashkil etadi. Davlatga tegishli va hususiy bog'chalar o'rtasidagi farq katta emas. Ta'lim berish jarayonining tizimi va yondashish ikkala turdag'i muassasalarda ham 2006 yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi asosiy qonun"ga mos ravishda olib boriladi. Bunda bolaning hox davlatga qarashli, hox hususiy bog'chada tarbiyalanishi uchun to'lov puli ota-onaning daromadiga qarab belgilanadi - oila daromadi qancha katta bo'lsa bog'cha puli ham shuncha katta bo'ladi. O'rtacha qilib olganda kam ta'minlanganlar uchun 100 AQSh dollardan, badavlat oilalar uchun 500 dollargacha to'lov amalga oshiriladi. Yaslilarda (bolaga qarash

markazlarida) yana bolaning yoshi ham hisobga olinadi - bola qanchalik kichik bo'lsa, to'lov baxosi yuqori bo'ladi. Lekin bari bir hususiy bog'chalarda to'lov narxi yuqoriroq hamda har oylik to'lovdan tashqari kirish to'lovini ham o'z ichiga oladi va bu esa 1000 AQSh dollargacha borishi mumkin. Shular bilan birga hamma bog'chalar uchun majburiy bo'lgan forma uchun ham pul to'lash kerak bo'ladi. Har bir bolalar bog'chasi o'z formasiga ega bo'lib bunda bir xil shimchalar, yubkachalar, ko'ylakchalar, issiq ko'ynaklar, bosh kiyim va orqasiga osib yuriladigan xaltalar bo'lishi kerak. Formalarni kiyib yurish majburiy.

*Yaponiyada maktabgacha tarbiya.* Maktabgacha ta'lim muassasidagi bola tarbiya va mazmuni sifati bog'chaning davlatga qarashli yoki hususiyligida emas balki aniq bog'chaning o'ziga, u joylashgan hududi va pedagogik jamoasiga bog'liq bo'ladi. Guruhlardagi bolalarning soni ham turlicha bo'lib, 8 nafardan 40-50 nafargacha bo'lishi mumkin.

Yaponiyada maktabgacha tarbiya muassasalarida ish soatlari turlicha. Misol qilib aytganda, davlat bog'chalari ikki xil ko'rinishda bo'ladi – to'liq ish kunidan iborat bog'cha bo'lib, uning tartibiga ko'ra bog'cha har kuni va shanba (yarim kun) kuni qo'shilgan tarzda ishlaydi. Bunday bog'chaga ikkala ota-onasi kuniga 4 soatdan ko'proq ishlaydigan bolalar qabul qilinadi. Kun bunday bog'chalarda ertalab soat 8 dan boshlanib, bolani kechki soat beshgacha hoxlagan vaqtda olib ketish mumkin. Qo'shimcha to'lov evaziga bolaga kechki soat 7-gacha qarab turish mumkin. Ikkinchisi ko'rinishdagi bog'chalar, bu bolalarni yarim kunga qabul qiladigan bog'chalar. Bir xil kutilmagan sharoitlarda, masalan kuchli to'fon havfi haqidagi ogohlantiruvdan so'ng ota-onalar bolalarni maktabgacha muassasadan olib ketishlari shart.

Bolalar bog'chalarida ota-onalarni tarbiyaga jalb qilish jarayoni o'ta yuqori darajada. Ertalab vaqtli bolalarni bog'chaga tashlab ketib kechqurun olib ketadigan bizning ota-onalar uchun Yaponiya bolalar bog'chalaridagi tartibga ko'nikish juda qiyin, chunki u yerda bola tarbiyasida ota-onaning muntazam qatnashishi va faol ishtiroki talab qilinadi. Bolalar bog'chada otaonalarsiz ikki soat, uzog'i bilan to'rt soat bo'lishlari mumkin. Va bu jarayonda nafaqat bolalar, balki ota-onalar ham tarbiyalananadilar.

Bolalar yaslilarida tarbiyachilar kundalik daftар tutib unga bolaning kun davomidagi faoliyatini yozib boradi: bola qanday ovqatlandi, qanday uxladi, o'zini qanday xis qildi va hokazolar, va xuddi shu narsalarni ota-onalardan ham kutadilar. Pedagoglar va ota-onalar har bir bola tarbiysi to'g'risida o'zlarining qiziq kuzatuvlarini va fikrlarini yozib boradilar. Bolalar tarbiysi jarayoni pedagog va ota-onaning birgalikdagi yaqin hamkorligida amalga oshiriladi. Lekin shuni ham ta'kidlash lozim, bu jarayonda pedagog (tarbiyachi) boshlovchi tomon hisoblanadi. U esa o'z navbatida otaonalarning bolalar tarbiyasida yo'l qo'ygan kamchilik hamda

adashishlarini ko'rsatib berishi mumkin va ota-onalar buni nafaqat hisobga olishi balki keljakda undan qo'llanma sifatida foydalanishi zarur.

Maktabgacha tarbiya muassasa pedagogik jamoalari tomonidan bolalarni tarbiyalash usuli bo'yicha ota-onalar o'qitib boriladi, muntazam ravishda ota-onalar majlislari o'tkaziladi. Bolalarning onalari odatda bir-birlari bilan tez-tez o'zaro suxbatlashib turadilar, turli masalalarni xal qiluvchi «onalar» qo'mitalari tuzadilar, bolalar muassalarida o'tkazib turiladigan sport kunlari, kuzatuv va boshqa tadbirlar kunlarida qatnashib turadilar. Ammo, avvalambor, maktabgacha yoshdagi yapon bolalarining tarbiyasi uydan boshlanadi. Aynan ota-onalar o'z farzandlariga ma'lum axloq usullarini singdirib boradilar, o'z xattiharakatlari bilan bolalarni mehribon, xushmuomalali, rahmdil va mustaqil bo'lishni o'rgatadilar. Bola uchun onaning mehri juda yuqori darajada va onaning yaxshi munosabatini yo'qotish uning uchun oliv jazodan ham qo'rqinchi xol.

### Nazorat savollari:

1. Respublikada maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'limga muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichi 31 foizni asosiy sabablarini nima deb bilasiz?
2. Respublikamizning qaysi hududda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'limga muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichlari yuqori va pastdir? Buning sabablari nimada?
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2016 yil 29 dekabr kuni —2017-2021 yillarda maktabgacha ta'limga tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida||gi PQ-2707-sonli qarorni dolzarb masalasini olib bering?
4. 2017-2021 yillarda maktabgacha ta'limga tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorda, nechta bolalarni maktabgacha tayyorlashning muqobil shakldagi qisqa muddatli guruhlar tuzushish keltirilgan?
5. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi nechta ustuvor yo'nalishi mavjud va ularning ranglari?

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: "O'zbekiston", 2011.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b.

## 2-Mavzu: Maktabgacha ta'limni rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar.

### Reja:

1. Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmi
2. Uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini – maktabgacha ta'lim
3. Respublikamizda maktabgacha ta'lim tashkilotdari faoliyati

**Tayanch tushunchalar:** yangi avlod, samarali tizim, rivojlantirish, takomillashtirish, boshqaruv mexanizmi, malakali kadrlar, maktabgacha ta'lim tashkiloti, sog‘lom muxit, uzluksiz ta'lim.

### 1. Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmi

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma’naviy hayot darajasining yuksalishi ta’lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi.

Shu bois, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ta’lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo‘lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta’lim tizimni yaratish ko‘zda tutildi.

Sohadagi islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta'lim xizmatlari ko‘rsatish tizimi isloh qilindi, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi qayta ko‘rib chiqildi, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralar kuchaytirildi, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog‘onali tizimi joriy etildi.

Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarini sonini yanada oshirish va ular ko‘rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo‘ldi.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to‘ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3955-son qaroriga muvofiq:

- O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi muvofiq, quyidagilarni nazarda tutgan holda:

- maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

- maktabgacha yoshdagи bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

- bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

- maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

Maktabgacha ta'lim. Uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, tahlillar shuni ko'rsatdiki, oxirgi yillarda turli omillar ta'sirida maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash borasida rivojlanish o'rniqa, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdagи bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichlari o'sishi tendensiyasi kuzatilmadi. Aksincha, so'nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroq kamayib, bugungi kunda respublika bo'yicha bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etdi. Bunga mavjud maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talablarga javob bermasligi, tizimda variativ dasturlar, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil shakllarning ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada o'rganilmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati oliy ma'lumotli emasligi, ta'lim sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi omillar sabab bo'ldi.

Darhaqiqat, o'tgan qisqa vaqt mobaynida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi farmon va qarorlari, shuningdek, “Maktabgacha ta'lim tizimini yanada

takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Dasturi hamda respublikada maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» asosida misli ko'rilmagan ishlar amalga oshirildi.

Barcha sohalar qatori tizimda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, farmon va qarorlarda belgilangan vazifalarning ijrosi boshqa sohalar qatori Davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborida bo'layotganligini guvohi bo'lmoqdamiz. Qabul qilinayotgan farmon va qarorlarning hayotga tatbiq etilishi natijasida yil yakuni bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarning qamrovi 10 foizga oshishi kutilmoqda.

Jumladan, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatlari tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lim muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalar qo'yildi.

## **2. Uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini – maktabgacha ta'lim.**

Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati uchun yetarli sharoit yaratilmaganligi bois, binolar qarovsiz holga kelib, bo'shab yotganligi, ulardan samarali foydalanilmayotganligi tanqid qilinib, amalga oshirilishi lozim bo'lgan yettita yo'nalishdagi strategik vazifalar belgilab berildi.

Ular doirasida davlat byudjetidan 427 bog'chada qurilish-ta'mirlash ishlarini bajarish uchun 771 milliard so'm mablag' ajratish, jumladan, 14 tasini yangidan qurish, 256 tasini rekonstruksiya qilish va 157 tasini kapital ta'mirlash rejalashtirilayotganligi, davlat-xususiy sherikchilik asosida yangi turdag'i maktabgacha ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, 2018 yil 1 yanvardan boshlab, 5 yil davomida xususiy bog'chalar tomonidan tabiiy gaz va elektr energiyasi uchun sarflanadigan mablag'ning yarmi davlat byudjeti hisobidan qoplanishi, bog'chalarda bolalarni sog'lom ovqatlantirish va ularga berilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari sifatini ta'minlash maqsadida 2018 yildan boshlab har bir maktabgacha ta'lim muassasasiga 10-15 nafar fermerni sifatlari oziq-ovqat mahsulotlarini arzon narxlarda yetkazib berish uchun biriktirilishi, bolalar bog'chalariga tayyor sifatlari issiq ovqat yetkazib beradigan davlat korxonasi tashkil etilib, "Ketring" xizmatini yo'lga qo'yish mexanizmining ishlab chiqilishi, maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti faoliyatining takomillashtirilishi, maktabgacha ta'lim uchun kadrlar tayyorlaydigan institutlarning qabul kvotalarini real ehtiyojdan kelib chiqib belgilash hamda maktabgacha ta'lim pedagoglariga qo'yiladigan

talablarning qayta ko'rib chiqilishi tom ma'noda sohani dunyo standartlari darajasiga olib chiqilishiga xizmat qilishi shubhasiz.

### 3. Respublikamizda maktabgacha ta'lim tashkilotdari faoliyati

Istiqlolda belgilanayotgan bunday ulkan vazifalarning amalga oshirilishi sohaning me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirishni talab etadi. Shu bois, ilg'or xorijiy tajriba asosida "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqishdan iborat o'ta dolzarb vazifa yuklatildi.

Maktabgacha ta'limni tashkil etish va unga rahbarlik qilish sohasining metodologik asosini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, «Maktabgacha ta'lim to'g'risida»gi konsepsiya va nizomda ko'rsatib be- rilgan maqsad va vazifalar tashkil etadi. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim muassasasi mustaqil ravishda o'z faoliyatiga taalluqli masalalar yuzasidan, qonunchilik- ka va pedagogik tamoyillarga zid bo'lman har qanday qarorlar qabul qilishga haqlidir.

E'tirof etish kerakki, mazkur qonun loyihasining ishlab chiqilishi o'z navbatida ta'lim sohasiga oid milliy qonunchiligidimizning yanada takomillashuviga, sohaga oid barcha munosabatlarning huquqiy asoslari mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shunday ekan, tizim oldiga qo'yilgan vazifalarning ijrosini ta'minlash biz Qon O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tuzilishi bu boradagi boshqaruv tizimini takomillashtirishga xizmat qilishi, shubhasiz. Endi idoraviy mansubligidan qat'i nazar, davlat tasarrufidagi barcha maktabgacha ta'lim muassasasi mazkur vazirlik tizimiga o'tkaziladi. Vazirlik zimmasiga bir qator muhim vazifalar yuklatildi. Xususan, maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olib, maktabgacha yoshdagi bolalarni har jihatdan intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish, davlat hamda nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari orasida sog'lom raqobat muhitini yaratish hisobiga farzandlarimizni maktabgacha ta'lim muassasalariga bosqichma-bosqich to'liq qamrab olinishini ta'minlash ana shular jumlasidandir. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim muassasalarini milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqishni uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik materiallar, o'yin hamda o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash, tajribali yuqori malakali, kasbiy jihatdan puxta tayyorlangan pedagog kadrlar va tarbiyachilarni o'quv-tarbiya jarayoniga jalb qilish kabilar ham vazirlikning diqqat-e'tiborida bo'ladi. unchilik palatasi deputatlardan ham faollikni va mas'uliyatni talab etadi.

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan

davrda oladi. Ana shu dalilning o'zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Bunga qo'shimcha isbot qidirib uzoqqa borishning hojati yo'q. Bog'cha tarbiyasini olgan bola bilan bog'chaga bormagan bolani solishtirganda, ularning fikrlash darajasi o'rtasida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas.

Shuning uchun ham biz maktabgacha ta'lismi tizimini qayta ko'rib chiqish masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarib, bu borada katta ishlarni boshlandik. Agar shu ishni har tomonlama puxta o'ylab amalga oshirmsak, butun ta'lismi tizimida sifat o'zgarishiga erishishimiz, ta'limga uzluksizligini ta'minlashimiz qiyin bo'ladi.

### Nazorat savollari:

1. Nodavlat ta'lismi xizmatlarini maktabgacha ta'lismi tizimida ko'rsatish to'g'risidagi yangiliklarni baèn qilib bering?
2. Oliy ta'lismi muassasalarida maxsus sirtqi bo'limlarning —Maktabgacha ta'lismi yo'nalishi bo'yicha 2018-2023 yillardagi kvotalar masalasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2017 yil 19 dekabr kuni maktabgacha ta'lismi tizimida amalga oshirilaётган islohotlar va istiqboldagi vazifalarni belgilab olishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishning strategik vazifalarni aytib bering?
4. Koreya maktabgacha ta'lismi to'g'risida qanday ma'lumotga egasiz?

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
- 2.“2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaggi PF-4947 sonli Farmoni.
- 3.“Maktabgacha ta'lismi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-tonli Farmoni.
- 4.“2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lismi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707-tonli Qarori.
- 5.“Maktabgacha ta'lismi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi PQ-3261-tonli Qarori.

### 3-Mavzu: Modulli ta'lim mohiyati. Modulli ta'lim tamoyillari. Modul bloklari

**Reja:**

1. Modulli ta'lim mohiyati.
2. Modulli ta'lim tamoyillari
3. Modul bloklari

**Tayanch tushunchalar:** modul tizimi, oliv ta'lim, ma'lum miqdordagi kredit, butunjaxon konsepsiysi, Yevropa Kengashi, o'quv fan, kredit birligi.

#### **1. Modulli ta'lim mohiyati.**

O'qitishning modul tizimi haqida rasmiy ravishda birinchi marta 1972 yil YuNESKOning Tokiodagi butunjahon konsepsiyasida so'z yuritilgan edi. Modulli o'qitish texnologiyasi – funksional tizimlar, fikrlashning neyrofiziologiyasi, pedagogik-psixologiyalarning umumiylari nazariyasidan kelib chiqqan holda xalqaro tashkilot – Yevropa Kengashida o'rghanish bo'yicha maxsus guruh tashkil etildi.

XX asrda dunyoning turli mamlakatlari oliv ta'lim muassasalari o'quv jarayonida kredit birliklarini (credit points) hisoblash tizimining o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turuvchi bir necha xil variantlari shakllandi. Ulardan eng keng tarqalgan variantlari: yevropacha (European Credit Accumulation – ECA), britancha (Credit Accumulation and Transfer System – CATS), amerikancha (US Credit System – USCS). "Kredit" atamasi (ESTS-credit) – "sinovdan o'tdi" ma'nosini anglatib, talabaning o'quv yurtida ma'lum bir kurs (modul)ni muvaffaqiyatli yakunlaganligi to'g'risida ma'lumot beradi.

Modul-kredit tizimi – har bir o'quv fani (moduli)ning talabalar tomonidan ma'lum miqdordagi kredit birliklari asosida o'zlashtirilishini ta'minlovchi tizim. Tizimning asosiy maqsadi ijtimoiy sub'ektlar tomonidan oliv ma'lumot olish imkonini kengaytirish, oliv ta'limining sifati va samaradorligini istiqbolli oshirish, talabalar hamda o'qituvchilarining harakatchanligi, faolligini rivojlantirish, shuningdek akademik daraja va boshqa kasbiy malakalarning mehnat bozoriga yo'naltirgan holda oliv ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ish bilan muvaffaqiyatli ta'minlashdan iborat.

O'quv jarayonini modulli-kredit tizimi asosida tashkil etish — o'quv jarayonini tashkil etishning modeli bo'lib, ta'limning modulli texnologiyalari va kreditlarni hisobga olish yoki ta'limning yagona birliklarini birlashishiga asoslanadi. Ta'lim modulli-kredit tizimiga asoslangan bo'lib, kredit birliklarining soni talabalar tomonidan sarflanadigan mehnat sarfiga mos holda belgilanadi. Talabaning mehnat sarfi – auditoriya mashg'ulotlari, mustaqil ishlar va o'quv rejasida ko'zda tutilgan boshqa faoliyatlarini o'z ichiga oladi. O'quv fani (moduli)ni o'rghanish uchun talaba

tomonidan sarflangan umumiy mehnat sarfi miqdori (auditoriya va mustaqil ish soatlari) bir o'quv yilida 750 – 800 soatni tashkil etishi lozim. Ayni o'rinda aytib o'tish zarurki, kreditlar auditoriya soatlari bilan chegaralanib qolmay, balki talabaning auditoriyadan tashqari sharoitda ham o'quv fani (moduli)ni o'zlashtirish uchun sarflaydigan yuklamani ham inobatga olgan holda belgilanadi.

Odatda, o'quv rejasiga kiritilgan fanlar bo'yicha ajratiladigan kreditlar soni 3 ga teng. Ba'zan o'quv fani uchun ajratilgan kredit soni 3 tadan ko'p yoki kam bo'lishi mumkin. Kreditlar barcha (majburiy va ixtiyoriy) tanlangan o'quv fanlari bo'yicha taqsimlanadi. Kreditlarning taqsimlanishida fan bo'yicha kurs loyihalari va amaliy ishlarining mavjudligi inoatga olinadi. O'quv fani uchun ajratiladigan kreditlar miqdori fanning murakkabligi hamda talabalar tomonidan uning o'zlashtirilishiga bog'liq bo'ladi. Odatda kreditlar yig'indisi semestrda 30 tani, o'quv yili davomida 60 tani, bakalavriat davrida esa 240 ni tashkil etadi.

Mazkur Qarordan kelib chiqib, bugungi kunda O'zbekiston universitetlarida o'quv jarayoni dunyoning ko'pgina mamlakatlarida amalda bo'lgan va o'zining qulayligi hamda samaradorligi bilan tan olingan o'qitishning modul-kredit tizimiga asoslanib amalga oshirilmoqda. Modul-kredit tizimida o'quv jarayonining asosiy mazmuni, talabalarda mustaqil ta'lim olish qobiliyatini rivojlantirish, talabalarga o'z sohasi yo'nalishlariga qiziqishlaridan kelib chiqib, o'quv fanlarini tanlash imkoniyatini berish va ularning mustaqil ta'lim olishini ta'minlash uchun to'laqonli o'quv adabiyotlarini yaratishni nazarda tutadi.

## 2. Modulli ta'lim tamoyillari

Tizimning bosh maqsadi universitetlarda hozirgi zamon talablariga javob bermaydigan, sifatsiz kadrlar tayyorlanishining oldini olishgi qaratilganligidir. Modul-kredit tizimi talabalarda mustaqil ta'lim olish, huquqni qo'llash, erkin fikrlash va tahlil etish ko'nikmalari, shuningdek yuridik sohaning o'ziga xos xususiyati hisoblangan muayyan muammoli vaziyatlar bo'yicha asosli huquqiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilganligi bilan alohida tavsiflanadi.

Yuqorida fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, respublikamiz universitetlarida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o'quv-tarbiyaviy jarayon sifatini oshirish, uni innovatsion mazmun bilan to'ldirish, talabalar bilimini baholashning samarali tizimini joriy qilish, mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallash va ulardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan nazariy tayyorgarlik huquqni qo'llash faoliyati bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash imkonini berdi.

Birinchidan, sohadagi muammolarni hal etish uchun ilg'or xorijiy tajribani e'tiborga olib, mamlakatimizda ta'limni takomillashtirishga qaratilgan konsepsiya ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Konsepsiya kadrlar tayyorlash tizimini bevosita tahlil qilib borish, yutuq va kamchiliklarni o'rganish, shu bilan birga kelgusida

amalga oshirilishi lozim bo'lgan maqsad hamda rejalarini belgilab olish imkoniyatini beradi. Konsepsiya kadrlar tayyorlash tizimining eng muhim jarayonlarini o'zida qamrab olishi kerak.

Ikkinchidan, kadrlarni tayyorlashda ixtisoslashuvni kuchaytirish uchun pedagogika sohasi bo'yicha o'zlashtirilishi shart bo'lgan fanlar va qo'shimcha (fakultativ) fanlar doirasining aniq belgilab qo'yilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, xorij tajribasidan kelib chiqib, milliy ped.kadrlar uchun "Legal Writing" (huquqiy yozuv uslubi) hamda Rechtsphilosophie (huquq falsafasi) fanlarini fundamental fanlar doirasida o'rganishni belgilab qo'yish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Pedagogning nutqi ravon bo'lishi mumkin, ammo huquqiy uslubda mahoratli yoza olish alohida qobiliyat hisoblanadi. Ma'lumki, huquqshunos ishining eng asosiy qismi huquqiy yozishmalar orqali amalga oshiriladi. Shu sababli ham talabalarda qisqa, lo'nda, ravon, mantiqiy izchillikda rasmiy yozish uslubini shakllantirish lozim.

Uchinchidan, mutaxassislik yo'nalishlarining ixtisoslashuvini yanada takomillashtirish. Bunda talaba aniq bir ixtisoslashuv asosida professional mutaxassis sifatida faoliyat yuritishiga zamin yaratiladi. Talabalarga fundamental (majburiy) fanlardan tashqari tanlov asosidagi fanlarni o'z xohishlariga binoan tanlash imkoniyatini joriy etish lozim. Bunda talaba fanlarni o'zi tanlab boradi va tanlangan har bir fan kelgusida tanlanishi mumkin bo'lgan fanlarga mantiqiy bog'langan bo'ladi. Shu sababli ham talaba dastlabki semestrning o'zida kelgusida ham o'rganishi kerak bo'lgan fanlarni aniqlab olishi lozim.

To'rtinchidan, talabalarning oraliq nazorat ishlarini tekshirishning obektivligini ta'minlash maqsadida plagiatsi aniqlashni ilg'or usullarini qo'llash lozim. Hozirgi vaqtida pedagog xodimlar tomonidan oraliq nazorat ishlarining tekshirilishini samarali usul deb bo'lmaydi. Bu nafaqat talabalarning obektiv baholanish imkoniyatlarini pasaytirishi, balki pedagog xodimlarga ham qiyinchilik tug'dirishini inobatga olish lozim. Aks holda, yuqori baholanishi kerak bo'lgan ishlarning past baholanishi yohud buning aksi kabi holatlar talabalarning o'qish faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, talabalarning nazorat ishlarini tekshirishda belgilangan aniq mezonlarga qat'iy rioya qilishni yo'lga qo'yish lozim. Xorij tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, (AQSh, Germaniya, Fransiya) talabalar berilgan yozma topshiriqni bajarishda belgilangan mezonlarga rioya qilmagudek bo'lsa (chegaralangan so'zlar miqdoriga rioya etish), ularning baholari avtomatik tarzda pasaytiriladi.

### 3. Modul bloklari

So'nggi yillarda, mamlakatimiz OTMlarida ham bosqichma bosqich kredit-modul o'qitish tizimiga o'tish ishlari boshlab yuborilgan. Xususan, 2030 yilgacha kredit-modul tizimi joriy etiladigan OTMlar soni 2 tadan 85 taga yetkazish rejalashtirilmoqda.



Bugungi kungacha, o‘qitishning ushbu tizimi Toshkent davlat yuridik universiteti va Toshkent axborot texnologiyalari universitetida amaliyotga joriy etilgan.

Ko‘p sonli o‘quvchilarimizning talab va istaklaridan kelib chiqib, ushbu maqolamiz orqali kredit-modul o‘qitish tizimi haqida ma’lumot beramiz.

Avvalo modul tushunchasi haqida. Modul – bu alohida individual o‘quv fani. O‘zida bilimga egalik qilish va kasbiy jihatlarini qamrab olgan bo‘lib, ta’lim oluvchilarning o‘quv dasturini o‘zlashtirish natijasida shakllangan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini nazorat qilishning tegishli turi bilan yakunlanishni nazarda tutadi.

Kredit-modul o‘qitish tizimi esa, har bir o‘quv moduli tarkibini tuzishga asoslangan modulning o‘quv natijalari va yakuniy nazoratni kuzatib borish orqali ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini muntazam ravishda baholab boruvchi o‘quv dasturini o‘zlashtirish jarayonini tashkil etish tizimi hisoblanadi.

Mazkur o‘qitish tizimi ma’ruza, nazariy, amaliy, seminar, laboratoriya mashg‘ulotlari, o‘quv amaliyoti, klinik o‘quv amaliyotlar, kurs loyihasi (ishi), shuningdek ta’lim oluvchilarning mustaqil mashg‘ulotlari bo‘yicha haftalik soat yuklamasi va ta’lim oluvchilarning faoliyatini baholash mezonlarini aks ettiradi. Ta’lim oluvchilar tomonidan barcha majburiy faoliyat turlari bajarilgandan va ular baholangandan so‘ng kreditlarni to‘plash mumkin.

Kredit birlklari tizimiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu kredit dasturlarini uning tarkibiy qismlari, ya’ni modullar, modullar bloklari, kurslar va boshqalarga biriktirish orqali ta’lim dasturlarini tavsiflashning tizimli usulidir.

Kredit-modul o‘qitish tizimi o‘quv jarayonining quyidagi shakllaridan tashkil topadi:

auditoriya mashg‘ulotlari – ma’ruza, nazariy, amaliy, seminar, laboratoriya mashg‘ulotlari, o‘quv (klinik) amaliyoti;

auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar – ilmiy kutubxonada ishslash, mustaqil ishlar, individual maslahatlar, klinik vazifalar, ishlab chiqarish (malaka) amaliyoti, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, ta’lim oluvchilarning ilmiy anjumanlarda qatnashishi, registratura mutaxassisliklarida ilmiy faoliyat turlari va boshqalar.

Odatda, kredit ta’lim oluvchi tomonidan o‘quv rejasi bajarilishining ko‘rsatkichi bo‘lib, tegishli o‘quv ishlarini bajarishga ketadigan vaqt (soat)lardan tashkil topadi. Bu modul xususiyati va bo‘lajak mutaxassisni shakllantirish uchun o‘quv ishlarining muhimligidan kelib chiqib ta’lim muassasasi tomonidan belgilanishi mumkin. Har bir modul mustaqil kreditga ega bo‘ladi.

Qayd etish o‘rinliki, kredit-modul tizimiga o‘tish – davr talabi. Bu tizimda o‘qituvchilarni talabalar tanlaydi. Tanlov fanlari soni ko‘paytiriladi, ya’ni talaba o‘z yo‘nalishi bo‘yicha tanlab o‘rganishi mumkin bo‘lgan fanlar soni ko‘p bo‘ladi.

Ammo kredit-modul tizimida kerakli ballni yig'a olmagan talabalar OTMlarda uzoq yillar o'qishiga to'g'ri keladi.

### Nazorat savollari:

1. Modulli ta'lif mohiyatini ochib bering.
2. Modulli ta'lif tamoyillari qanday?
3. Kredit-modul tizimi xaqida tushuncha bering
4. Pedagogik kadrlarni tayyorlashda ixtisoslashuvni kuchaytirish uchun nimalarna amalga oshirish zarur?
5. Konsepsiya ko'rsatilgan kadrlar tayyorlash tizimining eng muhim jarayonlarini ko'rsatib o'ting

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: "O'zbekiston". – 2017.– 102b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.

**4-Mavzu: Rivojlangan Yevropa davlatlari (Germaniya, Angliya), Osiyo mamlakatlari (Yaponiya, Janubiy Koreya) va Amerika Qo'shma Shtatlari kabi davlatlarning o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot jarayonlarini tashkil etish va amalda qo'llash bo'yicha tajribalarini ta'lif tizimiga tadbiq etilishi.**

### Reja:

1. **Jahon hamjamiyatida ta'lifni rivojlanishi**
2. **O'zbekistondagi ta'lif tizimi xolati.**
3. **Xorijiy davlatlarda ilmiy-tadqiqot jarayonlarini tashkil etish**

**Tayanch tushunchalar:** Jaxon jamiyati, ta'lif tizimi, Yevropa davlatlari, o'quv dasturlari, ilmiy tadqiqot, tajriba, tadbiq etish, o'quv-uslubiy jarayoni.

#### **1. Jahon hamjamiyatida ta'lifni rivojlanishi**

So'nggi o'n yilda jahon hamjamiyatida ta'lifni rivojlantirish borasida ulkan yutuqlarga erishildi. 1960 yilda jahonda odamlarning 36 foizi hatto bazaviy

ma'lumotga ega emasdi. Ammo, 2000 yilda aholi sonining ikki baravar o'sishiga qaramay, bunday odamlar soni 25 foizga kamaydi. 1975 yilgacha dunyoda katta yoshli har ikkinchi kishi yozish va o'qishni bilmagan bo'lsa, ayni paytda savodsiz odamlar soni deyarli yarim baravarga qisqardi.

Jahonda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ta'lim darajasi indeksi bo'yicha yetakchilik qilsa, Afrika davlatlari bu ko'rsatkichdan orqada qolmoqda.

Sanoat rivojlangan mamlakatlarda fuqarolarning 1–2 foizini savodsizlar tashkil etadi. Bu mamlakatlarda mehnatga layoqatli aholining o'rtacha 32 foizi (25–65 yosh) oliv ma'lumotga ega. Oliy ma'lumotga ega odamlar Kanadada 43, AQShda 38, Yaponiyada 36 foizni tashkil qiladi.

Rivojlanayotgan davlatlar guruhidagi o'rtacha savodxonlik darajasi qariyb 80 foizga oshdi. 1990 yildagiga nisbatan kichik yoshdagi maktabga bormayotgan bolalar soni 30 million nafarga kamaydi, maktabda o'rtacha o'qish muddatining davomiyligi yarim yilga ko'paydi.

Shunga qaramay, butun dunyoda ta'lim sohasida hali yechilmagan muammolar ko'p. Yer sharida qariyb 100 million nafar maktab yoshidagi bola maktabga bormaydi, boz ustiga ularning 5/3 qismini qizlar tashkil etadi. Saxara janubida joylashgan Afrika davlatlarida boshlang'ich maktabda o'qiyotgan bolalarning faqat uchdan bir qismi boshlang'ich sinflarni tamomlamoqda. Daromadi kam mamlakatlarda savodxonlikni tugatish borasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlarga qaramay, har to'rtinchi yosh yigit va har uchinchi katta yoshli kishi o'qish hamda yozishni bilmaydi. Bu guruhdagi mamlakatlarda tegishli yoshdagi aholining atigi 4/3 qismigina umumiy boshlang'ich ta'lim bilan qamrab olingan. XXI asr arafasida rivojlanayotgan mamlakatlarda boshlang'ich maktab yoshidagi 680 million yoki qariyb 17 foiz bola maktabga bormagan.

Inson tarraqqiyoti tug'risida ma'ruza 27 tabga bormaydigan bolalarning 40 million nafari Hindiston ulushiga to'g'ri keladi. Bu esa butun dunyoda boshlang'ich ta'lim bilan qamrab olinmagan jami bolalarning 3/1 qismini tashkil etadi. Jumladan, jon boshiga o'rtacha daromadi past bo'lgan mamlakatlarda sinflarda o'quvchilarning ortiqchaligi tufayli boshlang'ich ta'limning sifatsizligi muammosi jiddiyligicha qolmoqda. Shu va boshqa qator sabablarga ko'ra, boshlang'ich sinflarning har o'n yettinchi o'quvchisi sinfdan sinfga qolmoqda, boshlang'ich ta'limni egallagan har oltinchi bola esa keyinchalik o'qishni davom ettirmayapti. O'rta, keyinchalik oliv ma'lumotga ega bo'lish imkoniyati o'rtasidagi jiddiy tafovut o'qishning o'rtacha davomiyligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, Saxara janubidagi Afrikaning 70-yillarning ikkinchi yarmida tug'ilgan o'rtacha statistik fuqarosi 6 yillikdan ham kam maktab ma'lumotiga ega. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish mamlakatlaridagi uning tengdoshi esa 14 yillik ma'lumotga ega.

## 2. O'zbekistondagi ta'lim tizimi xolati.

MDH mamlakatlari, jumladan O'zbekistonda ta'lim darajasi ko'rsatkichi juda yuqori. Buning ustiga Hamdo'stlik mamlakatlarining barchasida bu ko'rsatkich kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi va yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichidan ham yuqori. O'zbekiston ta'lim darajasi bo'yicha dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatorida turadi. O'zbekistonda ta'lim ko'rsatkichi 0,998 ni tashkil etsa, ayni paytda dunyoda bu ko'rsatkich 0,77 ni tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari bo'yicha. 2006 yildagi Inson taraqqiyoti to'g'risidagi ma'ruzada 0,92 ko'rsatkich keltirilgan.

O'zbekiston ta'lim ko'rsatkichi bo'yicha Yevropa Ittifoqi tarkibiga kiradigan

- Malta (0,86),
- Ruminiya (0,90),
- Xorvatiya (0,90),
- Markaziy Amerikaning sanoati eng rivojlangan mamlakati Kosta-Rika (0,87)
- Xitoy Gonkongidan (0,88) oldinda.

Minimal ko'rsatkichga ega mamlakatlar taqqoslash uchun

Avstraliya Belgiya Burkina-Faso. . . . 0,23

AQSh. . . . . 0,97

Daniya Islandiya Mali. . . . . 0,24

Rossiya. . . . . 0,95

Irlandiya Ispaniya Niger. . . . . 0,26

Yaponiya. . . . . 0,94

Norvegiya Sloveniya Chad. . . . . 0,29

Braziliya. . . . . 0,88

Finlyandiya Shvesiya Gvineya. . . . . 0,34

Xitoy. . . . . 0,84

Yangi Zelandiya Janubiy Koreya Senegal. . . . 0,39

Indoneziya. . . . . 0,83

Gollandiya, Gvineya-Bisau. . . . . 0,39

Hindiston. . . . . 0,61

O'zbekistonda umumiy boshlang'ich va o'rta ta'lim muammosi to'liq hal etilgan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq 2009 yildan so'ng respublikada umumiy o'rta kasb-hunar ta'limi muammosi ham to'liq hal qilinadi. Tegishli guruhdagi yoshlar 12 yillik o'qishdan keyin o'rta maxsus ma'lumot to'g'risida diplom bilan birga muayyan kasbni egallaganini tasdiqllovchi attestatni ham oladi.

O'zbekiston katta yoshdagi aholi savodxonligi darajasi bo'yicha (99,3%) umumiy ta'limni tashkil etishga bunday yondashuv natijasida

- Italiya (98,4),
- Ispaniya, Janubiy Koreya (98)

- Isroil (97,1%) kabi iqtisodiy jihatdan yuqori rivojlangan mamlakatlarni ortda qoldirmoqda.

Respublikada keyingi o'n yil mobaynida ko'plab MTT, maktablar, kollejlar, litseylar va ularni zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash evaziga pedagoglar hamda o'quvchilar soni ko'paymoqda, ta'lim muassasalarining moddiy texnika bazasi rivojlantirilmoxda. Bakalavriat va magistratura mutaxassisligiga qabul qilish tegishli ravishda 1,3 va 2 martaga oshdi, boz ustiga oliy o'quv yurtlariga qabul qilingan xotin-qizlar soni ham jadal sur'atda o'sdi — 1,6 marta. 2005–2006 yillarda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va

### **3. Xorijiy davlatlarda ilmiy-tadqiqot jarayonlarini tashkil etish**

Maktabgacha ta'lmini rivojlantirish dasturini amalga oshirish uchun byudjet va byudjetdan tashqari fondlardan yarim milliard AQSh dollaridan ortiq mablag' ajratildi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida 2004 yilda o'rtacha o'qish muddati 12 yilni tashkil etdi.

Bu masalan, Ozarbayjon, Armaniston, Turkiya va inson rivojlanishi bo'yicha o'rtacha indeksga ega boshqa qator mamlakatlarga qaraganda ancha ko'kdir. Biroq faqat miqdoriy ko'rsatkichlar bilangina ta'limning inson rivojlanishiga ta'sirini to'liq baholab bo'lmaydi. Ta'limning sifati jamiyatni rivojlantiruvchi omil va harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Ta'lim qashshoqlik, muhtojlik, ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurashishda amaliy vosita sifatida xizmat qiladi. Ta'lim dunyoqarashni shakllantirish, insonning turmush tarzini tanlashini kengaytirishga yordam beradi, inson va jamiyat hayoti hamda faoliyatining turli jihatlariga ta'sir ko'rsatish mexanizmiga aylanadi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, jahon talablari darajasida ta'lim olishi va kasb egallashi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Yangi sharoitlardan kelib chiqib, «Ta'lim to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, 2017-2021-yillarga mo'ljallangan “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi”, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qaroriga muvofiq, ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab

chiqish va amaliyotga joriy etish, maktabgacha ta'lismuassasalarining qulayligini ta'minlash, maktabgacha ta'lismifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish hamda pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish taqozo etadi.

### Nazorat savollari:

1. Jahon hamjamiyatida ta'limgan rivojlanishi asoslari
2. O'zbekistonning ta'limgan tizimidagi ahvol qanday?
3. Xorijiy davlatlarda ilmiy-tadqiqot jarayonlarini qay tarzda tashkil etiladi?
4. Ta'limgan sifati jamiyatni rivojlanishiga ta'sir etadimi?
5. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonining 4- bo'limi qanday nomlangan?

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: "O'zbekiston". – 2017.– 102b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
3. Rahimov Sh. Asosiy vazifa – bolalarni ta'limga qamrab olish.// "Maktabgacha ta'lism" jurnali, 3-sod, 2017. 2-3 bet.
4. Quronov M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz...: ota-onalar uchun. – T.: Manaviyat, 2013. – 320 b.

### 5-Mavzu: Maktabgacha pedagogika fanlarining rivojlanishiga doir eng so'nggi ilmiy nazariyalar va ularning mualliflari faoliyati. Soha ilmiy maktablari faoliyati. Ilmiy maktablarda erishilgan yutuqlar.

### Reja:

1. Maktabgacha pedagogika fanlarining rivojlanishiga doir eng so'nggi ilmiy nazariyalar
2. Maktabgacha ta'limida ta'limgan-tarbiya ishlarni takomillashtirish
3. Ilmiy maktablarda erishilgan yutuqlar

**Tayanch tushunchalar:** fanlarning rivojlanishi, rivojlanish qonuniyatları, ilmiy nazariyalar, ilmiy maktablar, ta'limgan-tarbiya ishlari, maktabgacha pedagogika, ta'limgan-tarbiya ishlari, maktabgacha ta'lismi.

## 1. Maktabgacha pedagogika fanlarining rivojlanishiga doir eng so‘nggi ilmiy nazariyalar

Pedagogika fani kishiga har tomonlama tarbiya berish, har bir shaxsni hamma yosh davrlarida uyg‘un rivojlantirish qonuniyatlarini to‘g‘risidagi fandir. Shu bois, pedagogika fani insonni har tomonlama tarbiyalash haqidagi fan bo‘lib, tarbiya sohasidagi jamiyat talablarini amalga oshirish yo‘lida xizmat qiladi.

Maktabgacha pedagogika esa bolaga tug‘ilganidan to yetti yoshigacha har tomonlama tarbiya berish qonuniyatlarini o‘rganadi va bog‘cha sharoitida ta’lim-tarbiya ishini tashkil etishning mazmuni, metodi va shakllarini ishlab chiqadi.

Inson tarbiyasiga oid qonunlar dastlab xalq og‘zaki ijodida: ertak, qissa, pandnoma, maqol va matal kabilarda, keyinroq yozma yodgorliklarda, hadislarda asoslab berilgan.

Ta’lim-tarbiya ishlarining takomillashib borishida Sharq va G‘arbning qomusiy olim va pedagoglarining o‘rni kattadir. Markaziy Osiyolik mashhur allomalar: Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Furqat, Abdulla Avloniy kabi jahon tan olgan mutafakkirlar o‘zlarining qator asarlarida ta’lim-tarbiyaga katta e’tibor bilan qaraganlar.

Faylasuf olim Forobi o‘zining «Fozil shahar kishilarining qarashlari» asarida tarbiya orqali insonga beriladigan 12 fazilatni sharhlab beradi.

Abdulla Avloniy esa tarbiya haqida g‘oyat ibratlari bildiradi. «Pedagogika — Abdulla Avloniying yozishicha, — bola tarbiyasining fani, demakdir». «Dare ila tarbiya ... ikkisi jon ila tan kabitidir», «Dare oluvchi—biluvchi, tarbiya oluvchi—amal qiluvchidir». Bu yerda pedagogika faniga qisqa va lo‘nda ta’rif berib, ta’lim bilan tarbiyani esa jon bilan tanga o‘xshatib, ularni bir-biridan ajratib tushunish mumkin emasligini yorqin ifodalab bergen. Avloniying ta’kidlashicha, tarbiyani yoshlikdan berish nihoyatda zarur. Bolaga avvalo, kichik yoshdan boshlab, ota-oni tarbiya beradi, keyin tarbiya bilan butun jamoatchilik shug‘ullanadi, chunki bunda inson taqsiri hal etiladi deydi.

Demak, pedagogikaning bosh masalasi tarbiya sanaladi. Tarbiya jarayonida esa bolaning ongi, histuyg‘ulari shakllanadi. Eng muhim ijtimoiy hayot uchun zarur bo‘lgan va ijtimoiy munosabatlarga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim pedagogikasi bolalarning, yosh va individual xususiyatlarini e’tiborga olgan holda ularning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Maktabgacha tarbiya muassasalari ham bolalarni har tomonlama tarbiyalaydi. Bola hayotidagi ilk yosh eng muhim davr bo‘lib, xuddi mana shu davrda bolaning jismoniy, axloqiy, mehnat, estetik rivojlanishiga poydevor bo‘ladi.

## 2. Maktabgacha ta'limida ta'lim-tarbiya ishlarni takomillashtirish

«Maktabgacha ta'lim pedagogikasi» fani «Pedagogika» fanining bir qismi bo‘lib, o‘zining nazariy, ilmiy va amaliy asoslariiga ega. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi fanining nazariy asoslari: yosh avlodni barkamol shaxe qilib tarbiyalashga qaratilgan, ta’lim-tarbiya borasida yaratilgan tajribalarga, nazariy va metodik manbalarga, O‘rta Osiyo va jahon tan olgan buyuk mutafakkir olimlarning asarlari va ta’lim-tarbiyaning umumiy qonuniyatlariga asoslanadi.

Maktabgacha ta’lim pedagogikasi fanining milliy asoslari- ta’lim-tarbiya muammolarini, muayyan millagning milliy qadriyatlarini umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lagan holda hal etish, har bir millatning ma’naviy merosi va milliy qadriyatlariga tayangan holda milliy tarbiya masalalarini yosh avlod ongiga yetkazish mazmuni, usul, metod va tamoyillarini millylantirishdan iborat. O‘sib kelayotgan yosh avlodni muayyan maqsad yo‘lida har tomonlama kamol toptirish, uning ongi, dunyoqarashi, e’tiqodini o’stirish, xulq-atvorini tarkib toptirish maktabgacha pedagogika fanining dolzarb muammolaridan sanaladi. Hozirgi davrda har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashning maqsad va vazifalari ma’naviy boylik, axloqiy poklik, jismoniy mukammallikni o‘zida mujassamlashtirgan ijtimoiy faollilikni tarbiyalashni taqozo etadi.

Maktabgacha ta’lim pedagogikasi fanining maqsadi tarbiyachi murabbiylarning o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yishi, yosh avlodni har tomonlama rivojlangan yetuk shaxs qilib tarbiyalash uchun o‘z ustida ishlashi, intilishi, izlanishi, ayollarni zamon talablari asosida tarbiyalash uchun tarbiyaning yangi usul va vositalaridan keng foydalana olish kabi tarbiyachilik mahoratini shakllantirishga qaratiladi.

O‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash borasidagi mavjud muammolarni hal etish, ta’lim va tarbiya samaradorligini zamon talablari asosida ta’minlash, uni dunyo talablari darajasiga olib chiqishga erishish, yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish orqali ta’lim-tarbiyaning mohiyati, mazmunini shakllantirish va takomillashtirish, maktabgacha ta’lim pedagogikasi fanining qoida va qonunlarini xalqimizning boy tajribalari asosida boyitib borish va uning yangi qirralarini izlash bugungi kunning dolzarb muammolaridir.

Shuningdek, mustaqillik sharoitida uzlusiz ta’lim tizimini yanada rivojlanirish muammolarini hal etish maktabgacha ta’lim pedagogikasi fani oldi ga qator vazifalarni qo‘ymoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash vazifalari esa shaxsni tarbiyalash maqsadlari asosida ularning yoshiga va xususiyatlariga qarab belgilanadi.

### 3. Ilmiy maktablarda erishilgan yutuqlar

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish jismoniy, akuliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya majmuasidan iboratdir.

Bu sohada Sharq va G'arb xalqlari yaratgan og'zaki ijodiyot, buyuk mutafakkir, pedagog va olimlarning ta'lism-tarbiyaga doyr ilg'or fikrlarini o'rganib, tahlil qilib, barkamol insonni tarbiyalash jarayonini o'rganish biz uchun juda qimmatlidir:

— ta'lism-tarbiya to'g'risidagi qonun-qoida tamoyil, metod va usullarni bolalar bog'chalari amaliy hayoti bilan bog'lab, bo'lajak tarbiyachi

— o'qituvchilarga o'rgatish hamda xalq ta'limini boshqarish va rahbarlik masalalarini chuqur o'rganib, bo'lajak tarbiyachilarni qanday tayyorlash muammolarini hal qilish;

— maktabgacha tarbiya muassasalarida oila bilan uzviy hamkorlikda bolalarni har tomonlama rivojlantirish ishini amalga oshirish.

Bunday vazifalarda tadqiq etish:

— birinchidan, bolalar sog'lig'ini saqlaydi va mustahkamlaydi, jismoniy rivojlanishini ta'minlaydi;

— ikkinchidan, ilmga qiziqish va qobiliyatlarini rivojl antiradi;

— uchinchidan, Vatanga, tabiatga, jonajon o'lkaga muhabbat, kattalarga hurmatni, o'rtoqlik va jamoatchilik, xayriyohlik, xulq madaniyati, mustaqillik, uyushqoqlik va intizom, mehnatsevarlik kabi ijobjiy fazilatlarni tarbiyalaydi;

— to'rtinchidan, estetik tarbiyani amalga oshiradi.

Keyingi yillarda jismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya bo'yicha olib borilgan ilmiypedagogik tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash vazifalarini ularning psixik-fiziologik imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda belgilash zarurligini ko'rsatib berdi. Ular bolalar bog'chasining «Uchinchi mingyillikning bolasи» tayanch dasturida o'z aksini topgan.

Ilmiy tadqiqot ishlari ta'lism-tarbiya samaradorligini oshirish bilan bog'liq vazifalarini xalq ta'limining hamma bo'g'inlaridagi o'quv-tarbiyaviy ishlarni kelgusida yanada yaxshilash yo'llarini topish uchun amalga oshiriladi.

Ilmiy tadqiqot metodlari (metod — lotincha yo'l degan ma'noni anglatadi) orqali amalga oshiriladi. Ilmiy tadqiqot ishida olimlar pedagogika, maktabgacha ta'lism pedagogikasi va psixologiya fanining vakillari, muktab o'qituvchilari, bolalar bog'chalari tarbiyachilari va shuningdek, tarbiya berish amaliyoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan kishilar qatnashadilar.

“Ta'lism tug'risida” gi Konunda belgilab berishganidek, maktabgacha ta'lism bola shaxsini soglom va yetuk matabda ukishga tayyorgarlik darajasida shakllantirish maksadida tashkil etiladi. Ushbu ta'lism bolaning olti-yetti yoshga tulgunga kadar oilada MTM (yaslilar uch yoshgacha bulgan bolalar uchun; bolalar bogchalari 3 yoshdan 6-7 yoshgacha bulgan bolalar uchun) va mulk shaklidan katiy nazar ta'lism

muassasalarida olib boriladi3. “Maktabgacha ta'limga konsepsiysi”da kursatib uga^anidek, maktabgacha ta'limga - kup tomonlamali, maksadga yunaltirilgan, bolaning ta'limga keyingi boskichi - maktab ta'limga tayyorlovchi, jismoni, ruxiy, individual va yoshga doyr rivojlanishini ta'minlovchi ta'limga tarbiya jarayonidir4. Uzbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limga rivojlantirish makrudi kuysdagalarda aks etadi; MTMning makomini oshirish; otaonalarning talab va takliflarini inobatga olgan xolda, MTTning xilma-xil turlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish. Maksadga erishish uchun kuyidagi vazifalarni xal etish zarur: 1) MTTning davlat tizimini saklab kolish; 2) maktabgacha talimga kuyiladigan Davlat talablarini aniklashtirish; 3) maktabgacha ta'limga yangi mazmun va texnologiyasini ishlab chikish; 4) variativlik, ochiklik, oila, maktab, maxalla, nodavlat tashkilotlar bilan xamkorlikni tashkil etish tamoyiliga muvofik MTTning tashkilotiga tuzilishiga uzgartirishlar kiritish; 5) jamiyat rivojlanishi bilan bogliklikda kuyiladigan talablar va shart-sharoitlardan kelib chikib maktabgacha ta'limga uz vaktida va muvafakkiyatli moslashuviga eripshsh; 6) maktabgacha talimdagi uzgarishlarga tezda moslasha oladigan MTT uchun kadrlar tayyorlashning tizimini takomillashtirish. Maktabgacha ta'limga vazifalariga esa kuyidagilar kiradi:

- 1) bolalarni xalkning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy kadriyatlar asosida akliy va manaviy-axdokiy jixatdan tarbiyalash;
- 2) bolalarda milliy gurur, vatanparvarlik xislarini shakllantirish;
- 3) maktabgacha ta'limga yoshvdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, uqishga intilish moyollarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'limga tarayoniga tayyorlash;
- 4) bolalarning tafakkurini rivojlantirish, uzining fikrini mustakil va erkin ifodalash malakalarii shakllantirish;
- 5) bolalarning jismoni varuchiy salomatligini ta'minlash.

Jamiyat rivojining xozirgi boskichida yuz berayotgan ijtimoiy, iktisodiy, ma'naviy-ma'rifiy uzgarishlar ta'limga soxasini tubdan isloq kilish, uni utmishdan kolgan mafkuraviy karashlar va sarkitlardan tula xal os etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axlokiy talablarga javob beruvchi yukori mal akali kadrlar tayyorlash xamda ta'limga tarbiya jarayonini takomill ashtirish orkali samaradorlikni oshirishni takozo etmokda. Ta'limga tizimi oldidagi davlat buyurtmasi Uzbekiston Respublikasi “Ta'limga tug‘risida”gi Konuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning asosiy g‘oyalarida uz aksini goyalarida uz aksini toptan. Mazkur xujjalarda uzlusiz ta'limga bolalarni ukuv fanlari buyicha muayyan bilimlarni egashshshgari barobarida, ularning bilim olishga bulgan extiyoji, mustakil va ijodiy fikrlash, tashkilotchilik kobiliyatlar, amaliy tajriba va mexnat kunikmalarini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy kadriyatlarga asoslangan ma'naviy - axlokiy fazilatlarni, atrofmuxitga ongli munosabatni tarkib toptirishi lozimligi kayd etilgan. Shuningdek, bolalarni ma'naviy-axlokiy tarbiyalash va ta'limga tarbiya ishlarining

samarali shakllari va usullarini ishlab chikish, ularni amaliyotga joriy etish kursatilgan. Bu vazifalarni amalga oshirish uzlusiz ta'lim tizimida pedagogik faoliyat kursatadigan tarbiyachilar zimmasiga yuklanadi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” yuksak umumiylardan madaniyatga va kasb-xunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faoliyatta shuningdek, xar tomonlama kamol toptan, jamiyatda, davlat va oila oldida uz javobgarligini xis etadigan fukarolarni tarbiyalashni nazarda gutgan pedagogik goyani ilgari suradi.

Ushbu pedagogik g‘oya ta’lim tizimi oldiga:

- ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan xukukiy-demokratik davlat kurilishi jarayonlariga moslash;
- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy-iktisodiy tarakdiyoti istikbollaridan, jamiyat extiyojlaridan, fan.madaniyat, texnika va texnologiya ning zamonaviy yutuklaridan kelib chikkan xolda kayta kurish;
- ta’lim oluvchilarni ma’naviy-axlokiy tarbiyalashning samarali shakllari va uslublarini ishlab chikish xamda joriy; etishni xal etish vazifalarini kundalang kilib kuydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim tug‘risida”gi Konunning 30-moddasi orqali -farzandlar tarbiyasi va ta’lim olishlari, ularning konuniy xukuklari va manfaatlari ximoyasi borasida ota-onalarning urniga javobgarligi oshirildi. “O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tug‘risida”gi Nizomga muvofik bola maktabgacha ta’limni oilada, maktabgacha. ta’lim muassasalarida oladi.

“Maktabgacha pedagogika” fani orkali talabalar ilk yoshdan yeggi yshgacha bulgan bolalarni oilada va MTTda ta’lim-tarbiya ishlari mazmuni, metodlari, uni tashkil etish shakllari va bolalarni maktabga tayyorlashning samarali usullarini bilib oladi. Ma’lumki, Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 20 maydag‘i PK;-1533-sonli xamda 2011 yil 4 iyuldag‘i “2011-2012 ukuv yilida Uzbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalariga kabul tugrisvda”gi PK,-1564-sonli karorlari asosida yangilangan oliy ta’lim yunalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga muvofik 2011 yilning 16 sentyabrida Uzbekiston Respublikasi Oliy va urta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan modernizatsiyalashgan davlat ta’lim standartlari va ukuv rejalarini tasdiklandi. Yangi davlat ta’lim standartlari va ukuv rejalarini asosida barcha ukuv kurslari fan dasturlari xam kayta takomillashtirildi. Sunggi yillarda respublikada maktabgacha ta’lim tizimida tub isloxoatlar amalga oshirishshab, “Maktabgacha ta’lim konsepsiysi”, “Ilk qadam” Davlat dasturi kabi kator me’yoriy-xukukiy asoslar.



**Nazorat savollari:**

1. Maktabgacha pedagogika fanlarining rivojlanishiga doir eng so‘nggi ilmiy nazariyalar
2. Maktabgacha pedagogika fanidagi mualliflari faoliyati.
3. Soha ilmiy maktablari faoliyati.
4. Ilmiy maktablarda erishilgan yutuqlar qanday?
5. Maktabgacha ta’limida ta’lim-tarbiya ishlarining takomillanishi yo‘llarini ko‘rsatib o‘ting
6. Ilmiy maktablarda qanday yutuqlarga erishilgan ?

## IV. AMALIY MATERIALLAR

### 1-amaliy mashg'ulot: Xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta'lim tizimi.

Maktabgacha ta'lim tizimini tanqidiy o'rghanish. Maktabgacha ta'limning xorijiy davlatlardagi tizimi. O'zbekistondagi maktabgacha ta'limini ajralib turgan tamoyillari.

**Topshiriq:** Xorijiy davlatlarda ta'lim tizimini taxlilini qilish

#### Blis-so'rov:

- 1.Lug'aviy ma'nosiga ko'ra "ta'lim tizimi"-
- 2.Mazmuniga ko'ra "rahbarlik"-
- 3.Maxsus (kasbiy) maxorat-
- 4.Ijtimoiy moslashuv-
5. Shaxsiy xususiyatlar-
- 6.Individual yondashuv-
- 7.Ekstremal kasbiy kompetentlik-
- 8.Texnologik yangiliklar-
- 9.Individual rivojlanish dasturi-

Maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va o'quv jarayonini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan to'ldirish, ularning infratuzilmasi va moddiy-texnik jihozlanishini yaxshilash maqsadida:

- zamonaviy ijtimoiy-hammabop maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish maqsadida investorlarga yer uchastkalari, bo'sh turgan binolar, shu jumladan, faoliyat yuritmayotgan va tarbiyalanuvchilar soni kam bo'lgan davlat maktabgacha ta'lim muassasalarini beg'araz ajratish;
- investorlarga maktabgacha ta'lim muassasalarini, ayniqsa shunday muassasalarga yuqori ehtiyoj mavjud va infratuzilmasi rivojlanmagan hududlarda tashkil etish uchun zarur bo'lgan soliq imtiyozlari va boshqa preferensiyalarni, shuningdek, imtiyozli kreditlarni taqdim etish imkoniyati;
- investorlar tomonidan vakolatli davlat organlari bilan 50 yil muddatga tuziladigan davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi kelishuv asosida loyihani amalgaloshirish;
- investorlar tomonidan davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi kelishuvda nazarda tutilgan shartlarga, maktabgacha ta'lim sohasidagi davlat talablariga, sanitariya-gigiena normalariga qat'iy rioya etish, kelishuv amal qilishining butun muddati davomida faoliyat yo'nalishini saqlab qolish bo'yicha majburiyatlarni qabul

qilish, shuningdek, maktabgacha ta'limga muassasalari xizmati narxining ijtimoiy hammabopligrini ta'minlash;

- davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi kelishuv shartlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish hamda ularni bekor qilish mexanizmlari.

Qarorga ko'ra, maktabgacha ta'limga tizimini tanqidiy o'rganish va yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha:

- maktabgacha ta'limga sohasidagi qonunchilikni undagi bo'shliqlarni, korrupsiya va boshqa huquqbazarliklarni yuzaga keltiruvchi normalarni aniqlash nuqtai nazaridan inventarizatsiya qilish va tahlil etish;

• maktabgacha ta'limga sohasida davlat siyosatini samarali amalga oshirishga, shu jumladan, zarur infratuzilmani yaratishga, xodimlarning mehnatini moddiy rag'batlantirishga, pedagogik kadrlarni sifatli tayyorlash va malakasini oshirishga, shuningdek, maktabgacha ta'limga xususiy sektorini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash hamda kompleks o'rganish;

- maktabgacha yoshdagi bolalarni uyg'un rivojlantirish sohasidagi ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda sifatli maktabgacha ta'limga tashkil etishga davlat talablarini qayta ko'rib chiqish;

• maktabgacha ta'limga muassasalariga bolalarni qabul qilishning amaldagi tartibini, vakolatli davlat organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi holatini tanqidiy o'rganish;

- mavjud amaliyot va ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda, nodavlat maktabgacha ta'limga muassasalari faoliyatini litsenziyalashning soddalashtirilgan tartibini joriy etish, ularning tashkiliy-huquqiy shakllarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

• maktabgacha ta'limga muassasalarini o'quv-tarbiyaviy adabiyotlar bilan ta'minlash tizimini tahlil qilish;

- maktabgacha ta'limga muassasalarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash tartibini o'rganish hamda sifat talablariga va sanitariya-gigiena normalariga javob beradigan oziq-ovqat mahsulotlari va tayyor ovqatlar yetkazib berishning shaffof hamda soddalashtirilgan tizimini yaratish bo'yicha takliflar tayyorlash;

• maktabgacha ta'limga sohasida qonun hujjatlari va huquqni qo'llash amaliyotini yanada takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqishlar belgalandi.

**Tinglovchilarining faoliyati umumiy tarzda tahlil qilinadi. Imkon qadar har birining faoliyatiga baho beriladi. Mashg'ulot yakunlanadi.**

## **2-amaliy mashg'ulot: Maktabgacha ta'limni rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar.**

Ilg'or tajribalarni taxlili. Xorijiy davlatlardagi maktabgacha ta'limga e'tibori. Ta'lim xizmatlarini ko'rsatish borasidagi xorijiy tajribalar.

**Topshiriq:** Mavzu yuzasidan blis-so'rov savollariga javob berish

	<b>Mazmuni</b>
Tajriba	
Taxlil	
Modul	
Sharoitlar	
Ijtimoyilashuv	
Xizmat	
Rivojlantirish	
Ta'lim	
Tarbiya	
Ma'naviyat	
Muloqot	
Xamkorlik	

Xorijiy davlatlar ilg'or tajribasining tahlili zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratishga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanib, bolaning ijobiy ijtimoiylashuvi imkoniyatlarini namoyon qilish, uning har tomonlama shaxsga oid ma'naviy-axloqiy va ongli rivojlanishi, maktabgacha yoshga oid tegishli faoliyat turlari asosida tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, muloqot doirasida katta yoshdagilar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ochishga qaratilgan.

Maktabgacha ta'lim sohasi uzlucksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarildi. Biroq o'tkazilgan tahlillar maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko'rsatmoqda.

Jumladan, so'nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroq kamaygan bo'lib, bugungi kunda respublika

bo'yicha bolalarning maktabgacha ta'limga bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etadi. Shuningdek, maktabgacha ta'limga muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talabga javob bermaydi.


Maktabgacha ta'limga tizimida variativ dasturlar joriy etilmagan, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil, moslashuvchan modellar yetarli darajada rivojlanmagan hamda taraqqiy etgan mamlakatlar singari ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, matematik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish, atrof muhit bilan tanishuvga yo'naltirilgan maxsus davlat ta'limga dasturlari tatbiq qilinmagan.

Davlat maktabgacha ta'limga muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lib, bu bolalarni maktab ta'limga talab darajasida tayyorlash imkonini bermaydi.

Bundan tashqari, maktabgacha ta'limga sifati monitoringini yuritish tuzilmaviy va tashkiliy jihatdan nazarda tutilmaganligi sababli, maktabgacha ta'limga muassasalaridagi ta'limga jarayonining sifati va samaradorligini baholash zamon talablariga javob bermaydi.

### «Nima uchun?» texnikasindan foydalanish.

#### «Nima uchun?» texnikasining sxemadagi ko'rinishi



«Nima uchun?» texnikasi sxemasini tuzish qoidalari

1. Siz xorijiy davlatlar ilg'or ish tajribalaridan qanday foydalanasiz.
2. Mulohazalarning sxematik ko'rinishi qanday bo'lishini o'zingiz hal etasiz.
3. Har bir strelka fikr yo'nalishini ko'rsatishi lozim

### **3-amaliy mashg'ulot: Modulli ta'limga mohiyati. Modulli ta'limga tamoyillari. Modul bloklari.**

Maktabgacha ta'limga kredit-modul tizimi. Yevropa yagona ta'limga muhiti (Bolonya jarayoni)da maktabgacha ta'limga.

## Topshiriq: Ta'limda kredit-modul tizimini maqsadi va asosi.

Kredit-modul tizimi, bu — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimini reyting bali asosida baholash;
- talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;
- ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi.

### Pedagogikaning asosiy tushunchalari

<i>Pedagogikaning asosiy tushunchalari</i>		
<b>Tarbiya</b>	<b>Ta'lim</b>	<b>Ma'lumot</b>
Pedagogik hodisa bulib, yosh avlodga ilmiy bilimlar sistemasini, malaka va ko'nikmalarni maxsus metod va vositalar orqali rejali ravishda singdirib borish va uning natijasida har tomonlama shakllangan kishini tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi.	Ijtimoiy zarur bilimlar, muayyan ko'nikma va malakalarni o'quvchilarga singdirish, ularning ongiga, xulqiga ta'sir etish, dunyoqarashi va bilish faolligini rivojlantirishdir. U insonni mehnatga, hayotga tayyorlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Ta'lim berish jarayonida tarbiya va ma'lumotning maqsadi amalga oshiriladi. Ta'lim ikki tomonlama jarayon - o'qitish va o'qishni o'z ichiga oladi.	Asosiy pedagogik tushuncha bo'lib, uning ijtimoiy hayot voqealarini ob'ektiv aks ettirishdir. Ma'lumot kishini bilishga bo'lgan talabini ta'minlab, undagi qobiliyatlarni ma'lum darajaga ko'taradi va amaliy faoliyatga tayyorlaydi. Ma'lumot ta'limning natijasi bo'lib, u kishi tomonidan bilim, malaka va ko'nikmalarni mustaqil egalashdir.
O'qitish – pedagogik faoliyat bo'lib, u bilim ko'nikma va malakalarni bolalarga singdirish, ularning bilim va amaliy faoliyatiga rahbarlik kilishdir.		
O'qish – bolalarning bilim, malaka, ko'nikmalarni egallashdagi amaliy faoliyatidir. U o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi.		

Yuqoridagilar dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabandan mustaqil o'qib-o'rghanish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir. Muxtasar aytganda, mazkur tizim talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo'naltirilgan. Ilm sohibining butun hayoti davomida bilim olishini ta'minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgandir.

Keling, shu o'rinda modul va kredit tushunchalari mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Modul — bu, bir nechta fan hamda kurslar o'rganiladigan o'quv rejasining bir qismi. U talabalarda ma'lum bir bilim va ko'nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lishiga qaratilgan bir nechta fanlar (kurslar) majmui hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil qiladi, jonli, video hamda audio ma'ruzalar o'qiydi, talabaning faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Talaba esa mavzuni mustaqil o'rganadi hamda berilgan topshiriqlarni bajaradi.

**4-amaliy mashg'ulot: Rivojlangan Yevropa davlatlari (Germaniya, Angliya), Osiyo mamlakatlari (Yaponiya, Janubiy Koreya) va Amerika Qo'shma Shtatlari kabi davlatlarning o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot jarayonlarini tashkil etish va amalda qo'llash bo'yicha tajribalarini ta'lim tizimiga tadbiq etilishi.**

**Topshiriq:** Mavzu yuzasidan blis-so'rov savollariga javob berish. Germaniya, Angliya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim tizimi haqida savol-javob tuzish.

**"Insert" jadvali**

Tushunchalar	V	+	-	?
Xorijiy davlatlarda ta'lim tizimining farqligi				
MTT raxbarlarini malakalarini shakillantirish ahamiyati				
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida raxbarini shaxsiy xususiyatlari				

Jaxonning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarida ta'lim-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishi, maktablarda amalga oshirilganini o'rganish orqali biz mustaqil respublikamiz milliy ta'lim tizimlarini yangitdan tashkil qilishda, ta'lim tarbiyada, maktab ishini tashkil etishda eskirib, o'z dolzarbligini yo'qotib boraётган faoliyat shakllari va usullaridan tezroq xalos bo'lish, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ham ega bo'lamiz. ZOTAN, xozirgi zamon ta'limida davlat va jamiyat talabi va manfaatlari aks etib turishi kerak. Ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyusiya sharoitida muvaffaqqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, èsh avlodni kasb-hunarga yo'naltirish hamda o'rta ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lim-tarbiya berishda eng ilg'or pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish, uning eng maqbul tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda keng ko'lamdagi islohotlarni o'z boshidan kechirayotgan bizning ta'limimiz uchun bu katta ahamiyatga ega. Keyingi yillarda chet el ta'limi bo'yicha ko'pgina makolalar, broshyuralar, qo'llanmalar chop etildi, unga bag'ishlab seminarlar, anjumanlar, o'quvlar, uchrashuvlar o'tkazildi. Bu bizning ta'lim tizimlarimizda, chet ellarda o'quv tarbiya ishlarining qo'yilishiga etibor va qiziqishning tez sur'atlar bilan o'sib boraётganligidan dalolatdir. Xalq ta'limi tizimlarida chet el ta'limini o'rganish bilan shug'ullanuvchi muassasalar ham tashkil topmoqda. Bu masala bilan Respublika o'quv-metodika markazida, pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti tarkibida maxsus bo'limlar faoliyat ko'rsatmoqda, malaka oshirish markaziy institutida bir qator kafedralar ish bilan shug'ullanmoqdalar.

**5-amaliy mashg'ulot: Maktabgacha pedagogika fanlarining rivojlanishiga doir eng so'nggi ilmiy nazariyalar va ularning mualliflari faoliyati. Soha ilmiy maktablari faoliyati. Ilmiy maktablarda erishilgan yutuqlar. Maktabgacha pedagogika sohasida yaratilgan yangi o'quv va ilmiy adabiyotlar tahlili.**

#### Topshiriq. Pedagogikaning asosiy tushunchalari

<i>Pedagogikaning asosiy tushunchalari</i>		
Tarbiya	Ta'lim	Ma'lumot

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta'limga sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta'limga muassasalari sonini yanada oshirish va ular ko'rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo'ldi.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'limga bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'limga muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'limga tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi (keyingi o'rnlarda - Konsepsiya) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'limga tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qarorini ijro etish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, 2030 yilgacha maktabgacha ta'limga tizimini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Konsepsiya O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limga rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'naliishlari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha ta'limga sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

Maktabgacha ta'limga rivojlantirish sohasidagi davlat siyosati ishlab chiqilayotgan me'yoriy-huquqiy bazada o'z aksini topadi.

Maktabgacha ta'limga sohasi ko'plab qonun hujjatlari bilan tartibga solinishiga qaramay, maktabgacha ta'limga xizmatlarini ko'rsatishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish talab etiladi.

Shu munosabat bilan, Konsepsiyanı amalga oshirish doirasida maktabgacha ta'limga sohasida me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

1) ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda ta'limga tarbiya jarayonini tashkil qilishga qo'yiladigan amaldagi davlat talablarini qayta ko'rib chiqish hamda quyidagilarni nazarda tutuvchi Maktabgacha ta'limga davlat standartini ishlab chiqish:

- maktabgacha ta'limga tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida shakllantirilishi lozim bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va mahoratlarga qo'yiladigan talablarni;

- bolalarni parvarishlash, ularga qarash, sog'lig'ini saqlash va yaxshilash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish tartibini;

2) maktabgacha ta'limga tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini moddiy resurslar, oziq-ovqat mahsulotlari, dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash normativlarini tasdiqlash;

- 3) maktabgacha ta'limning muqobil shakllari faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash;
- 4) maktabgacha ta'lim tashkilotlarining namunaviy ustavlarini ishlab chiqish va tasdiqlash;
- 5) kasalliklarning profilaktikasi va diagnostikasi tartibini takomillashtirish, shuningdek, idoralararo o'zaro hamkorlik mexanizmlari orqali bolalarni psixologiktibbiy-pedagogik qo'llab-quvvatlashni ta'minlash;
- 6) maktabgacha ta'limni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan xalqaro me'yorlar va standartlarni implementatsiya qilish;
- 7) maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik faoliyatni va uni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash.

### **6-amaliy mashg'ulot: Yevropa yagona ta'lim muhiti (Bolonya jarayoni)da maktabgacha ta'lim.**

**Topshiriq: Ob'ektlarning umumiy belgilarini topish.** Bolonya tizimi va klassik yevropa ta'lim tizimiga taalluqli, biroq, bir-biri bilan mutlaqo kam bog'langan yoki mutlaqo bog'lanmagan 2 ta ob'ektni oling. Quyidagi jadval asosida ularga taalluqli o'zaro o'xshash jihat (belgi)larni topishga harakat qiling.

#### **Namuna**

<b>Bir-biri bilan mutlaqo kam bog'langan yoki mutlaqo bog'lanmagan ob'ektlar</b>	
<b>Bolonya ta'lim tizimi</b>	<b>Klassik yevropa ta'lim tizimi</b>

Zamonaviy Yevropada yagona kasbiy ta'lim makonini yaratilishi uchun ilk qadamlar 1949 yilda qo'yildi.

Xuddi shu yili asosiy maqsadi Yevropada ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlar kechishi va birligini ta'minlashdan iborat bo'lgan birinchi xalqaro tashkilot – Yevropa Kengashi tashkil etildi. Bolonya jarayoni yagona Yevropa oliv ta'limi makonini yaratish maqsadida Yevropa mamlakatlari oliv ta'lim tizimining bir-biriga yaqinlashishi va o'zaro uyg'unlashuvi jarayonidir. Ushbu jarayonning rasman boshlanish muddati 1999 yilning 19 iyuni deb e'tirof etilgan. Binobarin, xuddi mana shu sanada 29 mamlakat vakillari ishtirokida Bolonya deklaratsiyasi imzolangan edi. Ayni vaqtida mazkur tizim o'ziga 1954 yilda Yevropa Kengashi tomonidan qabul qilingan Yevropa madaniyati

Konvensiyasini ratifikatsiya qilgan (oliy davlat hokimiyati organi tasdiqlagan) 49 mamlakatdan 47 ishtirokchi mamlakatlarni qamrab olgan. Bolonya tizimining asosiy maqsadi ijtimoiy sub'ektlar tomonidan oliy ma'lumot olish imkonini kengaytirish, Yevropa oliy ta'limining sifati va samaradorligini istiqbolli oshirish, talabalar hamda o'qituvchilarining harakatchanligi, faolligini rivojlantirish, shuningdek, akademik daraja va boshqa kasbiy malakalarning mehnat bozoriga yo'naltirgan holda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ish bilan muvaffaqiyatli ta'minlashdan iborat.

Mazkur tizimni qabul qilgan mamlakatlar oliy kasbiy ta'limni zamonaviylashtirish, oliy o'quv yurtlarining Yevropa komissiyasi tomonidan moliyalashtiriladigan turli loyihalarda teng huquqlilik, hamkorlik asosida qatnashish, talabalar va o'qituvchilarini o'zaro akademik almashtirish uchun yangi imkoniyatlarga ega bo'lmoqdalar.

Tizimning umumiylashtirish umumiy asoslari Bolonya shahrida imzolangan deklaratsiyada o'z ifodasini topgan. Ular quyidagilardan iboratdir:

1. Diplom ilovasiga ko'ra fuqarolarni ishga samarali joylashtirish, Yevropa oliy ta'lim tizimining xalqaro raqobatga bardoshlilagini oshirish imkoniyatini yaratadigan o'zaro muvofiq keluvchi akademik darajalar tizimni qabul qilish.

2. Ikki siklli: tayyorgarlik va bitiruv ta'limiga o'tish. Ta'limning birinchi sikli uch yil davom etadi. Ikkinci sikl esa magistrlik va doktorlik darajalarini olish uchun yo'naltiriladi.

3. Keng ko'lamda talabalar almashinuvini qo'llab-quvvatlash uchun mashaqqatli sinov birliklarini qayta topshirishning Yevropa tizimiga o'tish. Mazkur tizim talabalarning o'r ganiladigan fanlarni tanlash huquqiga ega bo'lishlari uchun imkoniyat yaratadi. Buning uchun asos sifatida "Umr bo'yi ta'lim olish" konsepsiysi doirasida qo'llash imkonini beradigan tizim - YeSBT (Evropa sinov birliklari tizimi) ni qabul qilish taklif etiladi.

4. O'qituvchilar almashinuvini rivojlantirish. Yevropa hududida ishga sarflanadigan vaqt davrini inobatga olgan holda o'qituvchilar va b. xodimlar almashuvini kengashtirish. Transmilliy ta'lim standartlarini o'rnatish.

5. O'zaro mos mezon va metodologiyalarni ishlab chiqish hamda sifatini ta'minlashda Yevropa hamkorligini qaror topshirishga ko'maklashish.

6. Oliy ta'lim muassasasining ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini ishlab chiqish va oliy o'quv yurtlari talabalari va xodimlari faoliyatini tashqi baholashga tortish.

7. Oliy ta'limda, ayniqsa, o'quv rejalarini takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalariaro hamkorlik, talaba va o'qituvchilar almashinuvi va birgalikdagi ta'lim dasturlari, ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishga oid amaliy tayyorgarlik va ularni olib borish borasida zarur yevropacha nuqtai nazarlarning shakllanishiga ko'maklashish.

Deklaratsiyaga a'zo bo'lish uchun quyidagi dastlabki talablar qo'yiladi:

- oliy o'quv yurtigacha 12 yillik ta'lim; - ikki bosqichli oliy ta'lim-bakalavriat va magistratura;

- o'quv jarayoni va o'qitish natijalarini baholash YeSTS kredit texnologiyasi asosida tashkil etilishi Bolonya deklaratsiyasiga a'zo davlatlarda ta'lim modul-kredit tizimiga asoslanadi.

1989 yilda Yevropada Yevropa hamjamiyatining ERASMUS (European Community Action Scheme for mobility of University students) va TEMPUS kabi dasturlar joriy etildi. 2001 yilda 29 ta Yevropa davlatlari ta'lim vazirlari tomonidan Bolonya deklaratsiyasi imzolandi.

Ayni o'rinda aytib o'tish zarurki, kreditlar auditoriya soatlari bilan chegaralanib qolmay, balki talabaning auditoriyadan tashqari sharoitda ham o'quv fani (moduli)ni o'zlashtirish uchun sarflaydigan yuklamani ham inobatga olgan holda belgilanadi. Odatda o'quv rejasiga kiritilgan fanlar bo'yicha ajratiladigan kreditlar soni 3 ga teng. Ba'zan o'quv fani uchun ajratilgan kredit soni 3 tadan ko'p yoki kam bo'lishi mumkin. Kreditlar barcha (majburiy va ixtiyoriy) tanlangan o'quv fanlari bo'yicha taqsimlanadi. Kreditlarning taqsimlanishida fan bo'yicha kurs loyihalari va amaliy ishlarining mavjudligi inoatga olinadi. O'quv fani uchun ajratiladigan kreditlar miqdori fanning murakkabligi hamda talabalar tomonidan uning o'zlashtirilishiga bog'liq bo'ladi. YeSTSda kreditlar yig'indisi semestrda – 30 tani, o'quv yili davomida – 60 tani, bakalavriat davrida esa – 240 ni tashkil etadi. YeSTS kredit texnologiyasiga o'tishdan ko'zlangan maqsad talabalarga xorijda o'qishni davom ettirish uchun oliy yurtini tanlashda shart-sharoit yaratish; muayyan davlatdagi mavjud ta'lim olish muddatining xorijiy davlatlarda tan olinishini ta'minlash; Yevropa oliy o'quv yurtlari o'quv rejalarini o'rganish va shu asosida o'quv jarayonini takomillashtirish; talabalar qobiliyatini to'la rivojlantirish va o'qitishning yuqori natijalariga erishish.

Modul-kredit tizimi ham muayyan tamoyillarga tayanadi. Ular:

1. Transferancy – YeSTS tizimiga xohlagan shaxs yoki tashkilotning to'siqsiz kirishiga shart-sharoit yaratish. Ushbu shart-sharoit kuchli axborot targ'iboti vositasida yaratiladi, uning natijasida umumiy yangilik, aniqlik va ochiqlik muhiti shakllantiriladi. Axborot targ'iboti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) almashish sxemasiga kiritilgan talabalarning o'qish natijalari haqida bir-biriga o'z vaqtida axborot yetkazib turish;

2) oliy o'quv yurtlarining o'z axbrot paketlari bilan muntazam almashib turishlari, ta'lim xizmatlari doirasida bir-birini imkoniyatlarini o'rganish;

3) oliy o'quv yurtlarida, YeSTS haqida to'la ma'lumotlarning mavjudligi.

2. Agreement – talaba bilan ikkala oliy ta'lim muassasasining YeSTS koordinatorlari orasida tayyorlash mazmuni, o'quv tartibi va muddatlari, attestatsiya tadbirlari, o'quv rejalaridagi farqini bartaraf etish tartiblari haqida o'zaro kelishuvlarini anglatadi.

3. Sredits – Host (talaba qabul qiladigan) universitetida muvaffaqiyatli o‘tilgan barcha fanlar Post (talabani boshqa OTMga yuborgan) universitetda hisobga olinishi zarur.

4. Ta’limning insonparvarlashuvi – shaxsning turli ta’lim xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishi va ta’lim jarayonida inson qobiyatining ochilishini anglatadi. YeSTS ta’limni davom ettirish uchun oliy ta’lim muassasasini, o‘quv fanlarini va o‘qituvchilarni tanlish imkoniyatini beradi.

5. Ta’limning individuallashtiruvi har bir talabaning individual reja va ta’lim dasturlariga ega ekanligini ifoda etadi. Talaba tanlovi asosidagi fanlar 70 % ni, majburiy fanlar esa 30 % dan oshmaydi. Talabaning mustaqil ish hajmi 70 % ni, auditoriyadagi ishi esa 30 % ni tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkichlar individual ta’limni tashkil qilishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

6. Ta’limning samaradorligi guruhsda individual o‘qitishli auditoriya mashg‘ulotlari va talabaning mustavqil ishlarini uyg‘unlashtirish orqali ta’minlanadi. Auditoriya o‘quv vaqtining 70% gacha qismini individual o‘qitishga, shuningdek umumiy o‘quv vaqtining 70% gacha qismini mustaqil ishga ajratilishi o‘quv fanlarining talabalar tomonidan o‘z qobiliyatlari darajasida o‘zlashtirishga imkon yaratadi. Bu asosida ta’limning samaradorligi ta’minlanadi.

Bolonya jarayoni yagona Yevropa oliy ta’limi makonini yaratish maqsadida Yevropa mamlakatlari oliy ta’lim tizimining bir-biriga yaqinlashishi va o‘zaro uyg‘unlashuvi jarayonidir. Ushbu jarayonning rasman boshlanish muddati 1999 yilning 19 iyuni deb e’tirof etilgan. Binobarin, xuddi mana shu sanada 29 mamlakat vakillari ishtirokida Bolonya deklaratsiyasi imzolangan edi. Ayni vaqtda mazkur tizim o‘ziga 1954 yilda Yevropa Kengashi tomonidan qabul qilingan Yevropa madaniyati konvensiyasini ratifikatsiya qilgan (oliy davlat hokimiyyati organi tasdiqlagan) 49 mamlakatdan 47 ishtirokchi mamlakatlarni qamrab olgan Bolonya deklaratsiyasiga a’zo davlatlarda ta’lim modul-kredit tizimiga asoslanadi. 1989 yilda Yevropada Yevropa Hamjamiyatining ERASMUS (European 3 Umarov: A new stage in the development of legal education in Uzbekistan Published by 2030 Uzbekistan Research Online, 2017 Yuridikfanlaraxborotnomasi-Vestnik yuridicheskix nauk-Review of Law Sciences 2 (2017) 25-29 Community Action Scheme for mobility of University students) va TEMPUS kabi dasturlar joriy etildi. 2001 yilda 29 ta Yevropa davlatlari ta’lim vazirlari tomonidan Bolonya deklaratsiyasi imzolandi. Bugungi kunda ERASMUS dasturi bo‘yicha Yevropa Hamjamiyati universitetlari o‘rtasidagi talabalar almashinuvi 145 ta oliy o‘quv yurtlarini qamrab olgan. Ular o‘rtasida Yevropa universitetlari ta’limi natijalarini o‘zaro tan olish tizimi – YeSTS (European Credit Transfer System) shakllantirilgan.

## 7-amaliy mashg'ulot: Maktabgacha ta'limda kredit-modul tizimi mohiyati.

**Topshiriq:** Ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonini modernizasiyalash yo'naliishlari SWOT tahlilini qo'rsating.



**Namuna:** ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonini modernizasiyalash yo'naliishlari SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda ilg'or innovasion texnologiyalardan foydalanishning kuchli tomonlari	yangi dasturlar asosida ishlay oladigan pedagoglarni tayyorlash.
W	Pedagogik jarayonning ijodkori bo'lishi kuchli tomonlari	innovasiyalardan mohirona foydalana olishi.
O	Maktabgacha ta'lim pedagogikasining umumiylaysi (ichki)	mazmuni
T	To'siqlar (tashqi)	mohiyati.

Kredit-modul tizimi, bu — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimini reyting bali asosida baholash;

- talabalarga o‘zlarining o‘quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta’lim jarayonida mustaqil ta’lim olishning ulushini oshirish;
- ta’lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisiga qo‘yilgan talabdan kelib chiqib o‘zgartirish mumkinligi.

Yuqoridagilar dars mashg‘ulotlarini nafaqat o‘qitishni innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabidan mustaqil o‘qib-o‘rganish, ta’limga yangicha munosabatda bo‘lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqr nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga o‘rgatishdan iboratdir. Muxtasar aytganda, mazkur tizim talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo‘naltirilgan. Ilm sohibining butun hayoti davomida bilim olishini ta’minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgandir.

### **O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi va xorij davlatlarida muqobil ta’lim yo‘nalishlarida pedagogika fanlari turkumiga kiruvchi o‘quv fanlari o‘qitilishining qiyosiy tahlili**

Nizomiy nomidagi TDPU (O‘zbekiston)	Moskva davlat pedagogika universiteti (MPGU Rossiya)	BGPU im. M. Tanka	Ozarbajon davlat pedagogika universiteti	Janubiy Kozokiston davlat pedagogika universiteti Maktabgacha tarbiya va ta’lim	ERZINCAN BINALI YILDIRIM UNIVERSIT ETI (Turkiya) Maktabgacha ta’lim bo‘limi
Maktabgacha pedagogika	Vvedenie v spesialnost	Pedagogicheskaya psixologiya v DOO	Maktabgacha pedagogika tarixi	Maktabgacha ta’lim va uniiukitish	Ta’lim fanlariga kirish
Mutaxassislikka kirish	Sotsiokulturnaya model vospitaniya	Detskaya psixologiya	Maktabga kadar zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalarini shakllantirish	Madaniy – marifiy – va madaniy – xordik faoliyati	Maktabgacha ta’limga kirish
Bolalar psixologiyasi	Osnova duxvnonravstvennogo vospitaniya	Psixologiya effektivnogo roditelstva	Bolalar xukulari va salomatligi	Maktabgacha ta’lim va ukishni xal kilishga tayyorlash	Go‘dak sog‘lig‘i va ilk yordam

Maktabgacha ta'limda qiesiy pedagogika	Psixologiya detey rannego i doshkolnogo vozrasta		Oilada milliy tarbiya masalalari	Maktabgacha ta'limdi yanada rivojlanirish	Maktabgacha yoshda rivojlanish va ta'lim
Maktabgacha ta'limda me'yoriy asoslari	Diagnostika psicheskogo razvitiya detey	Tarbiyaviy ishlar metodikasi	Pedagog va tarbiyachining pedagogik maxorati	Bolalarni xukulkari va shakllantaraish boskichlari	Psixologiya ta'limi
Maktabgacha ta'limni tashkil etish va raxbarning tashkilotchilik madaniyati	Vospitanie i razvitie detey rannego vozrasta	Qiyosiy pedagogika	Ozarbajonda maktabgacha ta'limdi rivojlanish tarixi	Bolalar bilan ishlash	Bolalikda o'yinning rivojlanishi
Maktabgacha ta'limda Pedagogik diagnostika	Psixologiches kaya slujba v DOO	Pedagogik konfliktologiya	Tarbiyaviy ishlar metodikasini tashkil etish	Maktabgacha pedagogika	Ijodkorlik va rivojlanish
Tarbiyachining kasbiy kompetentligi va kreativligi	Sozdanie psixologicheskogo komfortnoy razvivayushchee sredy v DOO	Oilaviy maslahat va oila psixologiyasi	Bolalar mexnati, didaktik savollarni tashkil etish	Bolalarda xulq-atvorni boshqarish	Bolalarda xulq-atvorni boshqarish
Bolalarni maktabga tayyorlash	Psixologo-pedagogicheskaya podderja semeynogo vospitaniya	Ta'limda menejment	Maktab ukuv tarbiya asoslari	Erta bolalikda matematikani o'qitish	Erta bolalikda matematikani o'qitish
Ilq qadam dasturining pedagogik jaraeniga tadbiq etish	Podgotovka detey k obucheniyu k shkole	Oilaviy maslahat va oila psixologiyasi	Bolalar boxchasida jismoniy tarbiya	Maktabgacha ta'lim o'qitish dasturi	Maktabgacha ta'lim o'qitish dasturi
	Semeynaya, otsialnaya i sravnitelnaya pedagogika			Bolaning ruh sog'ligi	Bolaning ruh sog'ligi

## 8-amaliy mashg'ulot: Ta'lim xizmatlarini ko'rsatish borasidagi xorijiy tajribalar.

**Topshiriq: Ob'ektlarning umumiyligi belgilarini topish.** Kasbiy faoliyatningizga taalluqli, biroq, bir-biri bilan mutlaqo kam bog'langan yoki mutlaqo bog'lanmagan 2 ta ob'ektni oling. Quyidagi jadval asosida ularga taalluqli o'zaro o'xhash jihat (belgi)larni topishga harakat qiling.

### Namuna

<b>Bir-biri bilan mutlaqo kam bog'langan yoki mutlaqo bog'lanmagan ob'ektlar</b>	
<b>Pedagogik faoliyat</b>	<b>Raxbarlik faoliyat</b>

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limga tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limga modernizatsiya qilish, ilg'or ta'limga texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida:

- a) O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limga tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi muvofiq tasdiqlansin,
- b) O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limga tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2019 yilda amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» tasdiqlansin,
  - xalqaro aloqalar natijadorligini tahlil qilib borish, qo'shma dasturlar samaradorligini baholash, hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirish, chet ellik professor-o'qituvchilar va xorijdagи vatandoshlarni oliy ta'limga tizimiga jalb etish bo'yicha takliflar tayyorlash;
  - oliy ta'limga muassasalari faoliyati samaradorligini baholash va takomillashtirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish asosida ularni respublika oliy ta'limga muassasalari sharoitida qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish kabi qismlar belgilangan.

Ta'limga sifatini yaxshilash borasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish jarayonlarini jadallashtirish maqsadida davlat oliy ta'limga muassasalari (O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya,

Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi tizimidagi oliy ta'lim muassasalari bundan mustasno) rahbar xodimlarining xorijiy mamlakatlarga xizmat safariga chiqishini bo'yshunuvi bo'yicha tegishli vazirlik va idorani xabardor qilgan holda amalga oshirish tartibi joriy qilinsin.

Bunda oliy ta'lim muassasasi rahbar xodimlari tomonidan xorijiy mamlakatga xizmat safari oldidan asosiy ma'lumotlar, jumladan mamlakat nomi, tashrif maqsadi va rejasi, safar natijalari yuzasidan esa oliy ta'lim muassasasi kengashiga amalga oshirilgan ishlar va xarajatlar to'g'risida taqdim etilgan hisobot oliy ta'lim muassasasi veb-saytiga joylashtiriladi.

### Xorijiy maktabgacha ta'lim tizimidagi asosiy tushunchalari

<i>Maktabgacha ta'lim tizimidagi asosiy tushunchalar</i>		
<b>Ta'lim</b>	<b>Tarbiya</b>	<b>Pedagogik tizim</b>

Xorijiy davlatlar siyosati tavsifini keltirib o'tamiz:

*Australiyada* xususiy ta'lim davlat tomonidan takroriy va kapital mablag'larni olish orqali moliyalashtiriladi. Qayta moliyalashtirish umumiylar grantlar va talablar shaklida taqdim etiladi. Xususiy maktablarga to'lovlar matabning ijtimoiy-iqtisodiy mavqeiga bog'liq bo'lgan shkalasiga asoslangan.

*Hindiston* hukumati tomonidan xususiy ta'limga davlat yordami sifatida ta'lim grantlari shaklida beriladi. Masalan: o'qituvchilarning ish haqini to'lash shaklida grantlar.

*Germaniya* hukumati ta'limni moliyalashtirish, ta'lim muassasalarini ta'mirlash va ishga tushirish bo'yicha shartnomalar tuzadi. Xususiy sektor hamkorlari bilan maktablarni 15 yil davomida boshqaradi.

*Amerika Qo'shma Shtatlarida* ta'lim muassasalari xususiy va shartnomalar asosida boshqariladi. Xususiy hamkorlar eng yomon ishlaydigan ta'lim muassasalarini boshqarish uchun jalg etiladi va bu yerda ta'lim oluvchilar o'qish uchun to'lovlarini to'lamaydilar. Bunday ta'lim muassasalari jamoatchilikka qarashli bo'lib, davlat tomonidan moliyalashtiriladi va xususiy provayderlar uch yil davomida qo'shimcha ta'lim xizmatlari ko'rsatish uchun shartnomaga tuzishlari mumkin.

*Koreya Respublikasida* ta'lim tizimi "Maktabgacha ta'limni tartibga solish siyosati" ga asosan boshlang'ich matab bitiruvchilari o'zlarining yashash joylarida joylashgan davlat yoki xususiy o'rta maktablarga biriktiriladi. Xususiy maktablar hukumat talablariga javob berishi lozim, xususiy ta'lim xarajatlarining 95 foizi hukumat tomonidan subsidiyalanadi.

Maktabgacha ta'limni tashkil etish muammosi nafaqat O'zbekiston, balki rivojlangan Yevropa mamlakatlari uchun ham dolzarbdir. Rossiyada maktabgacha ta'lim muammosi birinchi navbatda, maktabgacha tarbiya muassasalari-bolalar bog'chalari yetishmasligi tufayli juda og'ir. Har yili ota-onalar bolani bolalar bog'chasiga kiritish uchun katta navbat sababli uzoq vaqt kutishadi.

Shunisi qiziqki, Yevropada deyarli hech qanday davlat bog'chasi mavjud emas, asosiy qismi – xususiy va oilaviy bog'chalardir. Ushbu mamlakatlarda bolalarni maktabgacha tarbiyalashni tashkil etish biznesga aylangan. Hozirgi kunda Rossiyada 58 mingta maktabgacha ta'lim muassasasi mavjud bo'lib, ularning 2 foizi nodavlat bog'chasi. Maktabgacha ta'lim AQShda keng miqyosda ishlaydigan daromadli ish bo'lib, xususiy bog'chalar o'z xizmatlari bilan bir-biri bilan raqobatlashadi. O'rta darajadagi xususiy bog'chalar uchun har oylik to'lov 1200 dollar turadi. Faqat kambag'al oilalarning bolalari bepul bolalar bog'chalariga borishadi.

*Yaponiya ta'lim tizimi.* Yaponiya - juda tez rivojlanayotgan davlat bo'lib, bu asosan yaponlarning tabiatan mehnatsevarlik va ishbilarmonligi bilan bog'liqdir. Dunyodagi barcha yangiliklar va yuksalishlar sari intilish, eng so'nggi yutuqlardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish - bu yapon xalqining azaliy milliy odatlariga aylanib qolgan. Bugungi kunda Yaponiya dunyodagi barcha davlatlar uchun ochiq va halqaro hamkorlik maydonida faol ishtirok etib kelmoqda. Yaponiyada juda qadimdan xalqning aqliy imkoniyatlaridan foydalanuvchi fan va texnikani qo'llash siyosati eng muhim o'rinn tutadi. Hozirgi davrda Yaponiya ilmiy tadqiqotlarga ketgan sarmoya miqdori bo'yicha dunyoda 2-o'rinda turadi. Yaponiya ta'limining shakllanishi 1867-1868 yillarda boshlangan. Yaponiya o'z oldiga 2 vazifani: 1-boyish, 2- g'arb texnologiyalarini Yaponiyaishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo'ydi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligini anglatdi.

*Germaniya davlati ta'lim tizimi.* Germaniya Federativ Respublikasi 16ta mustaqil Federativ yerlar (viloyatlar)dan iborat bo'lib, har biri shakliga ko'ra turlicha bo'lgan ta'lim tizimiga ega. Ta'lim muassasalari asosan davlat tasarrufida bo'lib, ularuchun ta'lim dasturiga tegishli bo'lган davlat ko'rsatmalari mavjud. Ta'limni joriy qilish va boshqarish Federal yerlar (FE) xuqumatining konpetensiyasiga kiradi, lekin markaz tomonidan umumiy raxbarlik ham bor: ta'lim vazirligi ta'lim siyosati konsepsiyasini ishlab chiqadi, OO'Yularini kengaytirishga mablag' ajratadi. GFR konstitutsiyasiga ko'ra har bir Federal Yer o'z hududidagi maktab va oliy ta'limni rejalashtirish va amaliyatga tadbiq etish bo'yicha o'zi javob berishga qaramay, barcha Federal Yerlar va Federal xukumat umumta'lim va oliy ta'lim muassasalarida o'qitish kurslarida birlikni ta'minlash 23 maqsadida hamkorlik qiladilar. Federal organlar va Federal Yerlarning ta'lim sohasi bo'yicha siyosati kelishilgan: ta'limning davomiyligi, ta'tillar,

o'quv dasturi, imtixonlarni o'zaro tan olish, attestatlar, maktabni tugatganligi xaqida guvohnoma, diplomlar, unvonlar shular jumlasidandir.

Janubiy Koreya Respublikasi ko'plab tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga tortmoqda, sababi bu davlat postindustrial sivilizatsiya yutuqlarini egallagan Osiyo – Tinch okeani regionining noyob davlatlaridan biridir. Koreyaliklar bajarilishi shart bo'lgan asosiy vazifa - o'z an'anaviy madaniyatini saqlash, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o'z madaniy-siyosiy identivlik, Sharqning an'anaviy qadriyatları va orientirlari bilan bog'lashga intilish deb hisoblaydilar. Kanadaliklarning eng muhim yutuqlaridan biri - bu ularning ta'limtizimdir. Ilg'or universitet va kollejlardagi ta'lim sifati juda 28 yuqorida Kanada diplomlari butun dunyoda tan olinadi. Xalqaro reytingda Kanadata'limi AQShdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Kanadaning turli provinsiyalari o'quv rejalarida o'ziga xosliklarko'rindi. Masalan, Kvebek, Ontario, Manitobda maktabgacha muassasadamaktabga tayyorlash 2 yil, 4 yoshdan 6 yoshgacha, Albert va BritanKolumbiyasida 1 yil. O'quv yili sentyabrning birinchi haftasidanboshlanadi va iyunning oxirgi haftasida tugaydi. Kanada maktablaridata'limning o'rtacha davomiyligi 12 yilni tashkil qiladi. 6-7 yoshdan bolalar boshlang'ich maktabga qatnay boshlaydi va unda 6 yiltahsil olishadi. Manitob va Ontario boshlang'ich maktablarida o'qish boshqaprovinciyalardan ko'ra 2 yil ko'p davom etadi. 12 yoshdan bolalar o'rtamaktabga o'tishadi va 16-18 yoshgacha o'qishadi. Kvebek provinsiyasida o'rtata'lim 11 sinf davom etadi, universitetda o'qishni xohlaganlar esa yana 2 yil kollejga tayyorlov bo'limida o'qishadi. 10-12 sinflar High Shool -oliy maktabda olib boriladi. Bu yerdagi "oliy maktab" tushunchasi oliy ta'limga tegishli emas, u Rossiyadagi o'rta ta'limga o'xshash. Oliy maktabda o'qish o'rta ta'lim kabi majburiy emas. Bu ta'lim turli uchta murakkablikdagi dastur asosida olib borilib, o'quvchilarni mehnat faoliyati bilan shug'ullanishga, kollejga yoki universitetda o'qishni davom ettirishga tayyorlaydi. Kollejlar asosan, 2 yoki 3 yillik dastur asosida, ba'zan bakalavriat dasturi bo'yicha tahsil beradi. Ular asosan o'rta maxsus ta'lim to'g'risida diplom yoki sertifikat beradi. Shu bilan birga, ayrim provinsiyalardajitimoiy kollejlar faoliyat ko'rsatib, ular bitiruvchilarga diplom bermaydi. Balki, maktab va universitet o'rtasida o'tish bosqichi bo'lib xizmat qiladi.

Belgiya ta'lim tizimi. Belgiyadagi ta'lim tizimi quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Boshlang'ich maktab 6-12 yosh.
2. O'rta maktab 12-16 yosh.
3. O'rta kasbiy maktab 16-18 yosh.
4. Oliy maktab 18-23 yosh.

Amerika Qo'shma Shtatlarida ta'lim tizimining tuzilishi quyidagicha: - bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha tarbiyalanadigan maktabgacha tarbiya muassasalari; - 1- 8 – sinflargacha bo'lgan boshlang'ich maktablar (bunday maktablarda 6 yoshdan 13 yoshgacha o'qiydilar); - 9 – 12 – sinflardan iborat o'rtamaktablar (bu maktablarda 14-

17 yoshgacha bo'lgan bolalar ta'lim oladilar). U quyi va yuqori bosqichdan iborat. Amerika Qo'shma Shtatlari navbatdagi ta'lim bosqichi oliy ta'lim bo'lib, u 2 yoki 4 yil o'qitiladigan kollejlar hamda 31 dorifununlardir. AQShda majburiy ta'lim 16 yoshgacha amal qiladi. Bu mamlakatdagi o'quv yurtlari davlat, jamoa tasarrufida, xususiy va diniy muassasalar ixtiyorida bo'lishi mumkin. Amerikada 3 yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyasi bilan onalar shug'ullanadilar, lekin ularga hech qanday imtiyozlar berilmagan. 5 yoshdan esa «Kinder garde» deb ataluvchi tayyorlov muassasalarida ta'lim boshlanadi. Boshlang'ich mакtab 6 yoshdan to 13- 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Bu boshlang'ich maktablarda umumiy savodxonlik va kasbga yo'naltirish vazifalari hal etiladi. Sinfdan-sinfga ko'chish o'quvchining o'zlashtirganlik darajasiga bog'liq. Boshlang'ich ta'lim turli shtatlarda turlicha belgilangan (4, 5, 6, 8 yil). Maktablarda turli xil to'garaklar, uchrashuvlar, shoular va sayohatlar uyuştiriladi, ammo ularning hammasiga haq to'lash lozim. O'rta maktablar quyi va yuqori bosqichlardan iborat. 9 - sinfni bitirgan talabalar tanlov asosida o'rta maktabga qabul qilinadi. O'rta maktablarda to'rt yo'nalishda kasb-hunar asoslari berib boriladi.

- 1 - kasb-hunar ta'limi,
- 2 - biznes ta'limi,
- 3 - savdo va sanoat ta'limihamda
- 4-qurilish ta'limi.

Oliy ta'lim 4 asosiy bosqichda amalga oshiriladi.

- 1-kichik mutaxassis
- 2 yillik kollejlarda amalga oshiriladi.

2-bakalavr 4 yillik kollejlarda, 4 yillik kollej yoki dorifununni tugatgan 3-bosqichni davom etdirishi mumkin. Bu 1-2 yillik magistr mакtabi. 4 –bosqich esa doktorantura.

Oliy ta'limda ikki yo'nalish mavjud:

- 1-ta'limni individuallashtirish;

2-talabaning mustaqil ishlashini amalga oshirish. O'qituvchi yo'naltiruvchi rol o'ynaydi. Asosiy maqsad talaba intellektini mashq qildirish va mantiqiy fikrlashga o'rgatishdir. Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, AQSh o'rta maktablarida o'z o'quvchilariga uch yo'nalishda: akademik, kasb-hunar, umumiy yo'nalishlarda bilim beradi. Ayni paytda o'quvchilarga to'rt yo'nalishda: qishloq xo'jaligi, 32 biznes ta'limi, savdo va sanoat qurilishi bo'yicha hunar,kasb-kor asoslari o'rgatiladi. AQShda har bir o'quvchiga fanlar bo'yicha olgan bilimlari jamlangan attestatlar beriladi. Kollejlarda o'qish istagida hujjat topshirgan o'qituvchilar yuqori o'rta maktabning so'nggi ikki yili bilimlari hajmidakirish test sinovlaridan o'tkaziladi. O'g'il- qizlarning tanlagan kasbiga layoqati va qobiliyati ham aniqlanadi. Maktablarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan vositalar elektron yozuv apparatlari (kalligrafiya va

yozuv qoidalarini takomillashtirishga yordam beradigan moslamalar) ta'lim televideniesi, qo'lda ko'tarib yuradigan elektron til laboratoriyasi, slaydlar, videoapparaturalar, kompyuter va hokazolardan iborat.



## V. KEYSLAR BANKI

**“Keys-stadi”** - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeahodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

### “Keys-stadi” metodini amalga oshirish bosqichlari

<b>Ish bosqichlari</b>	<b>Faoliyat shakli va mazmuni</b>
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta’moti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagи audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ning yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

## VI. GLOSSARIY

O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Izoh
Arxiv xujjatlari	Arxivnyie materialy	Archive documents	Fuqarolar, jamiyat va davlat uchun ma'lum ahamiyat kasb etgani bois saqlanishi lozim bo'lgan matnli, qo'lyozma va mashinada o'qiladigan hujjatlar, ovozli yozuvlar.
Bolalar kitobi	Detskaya literatura	Children's literature	Shaxs va ta'limni rivojlantirish, bilimlarni tarqatishning eng muhim vositalardan biri bo'lgan nashr turi. Bolalar kitolari faqatgina o'qish va bilim olish manbai bo'libgina qolmay, balki bolaning estetik va psixologik tarbiyasida muhim o'rinn tutuvchi manbadir.
Boshqarish faoliyati	Upravlencheskaya deyatelno-st	Management activities	Raxbarning pedagogik, normativ va psixologik asoslarda boshqarish qarorlarini tayyorlash, qabul qilish va amalga oshirishga qaratilgan maqsadga muvofiq xatti- xarakatlari majmui.
Byurokratiya (buyruqbozlik)	Byurokratiya	Bureaucracy	(tom ma'noda- kanselyariya hukmronligi; fransuzcha bureau-byuro, kanselyariya va yunoncha kratos-kuch, hokimiyat, hukmronlik) Tabaqalangan boshqaruv tizimi bo'lib, uning uchun har bir darajada vakolatlar chegarasining aniq belgilanganligi, qarorlarning mavjud qonunlar va qoidalarga binoan qabul qilinishi xosdir.
Genofond	Genofond	Genefond	Genlar zahirasi; turli genlarning tarqalishi, ularning nisbiy miqdor va tarkibiy sifati; muayyan organizmlarning tarqalganligi. Irsiy belgilarni o'rganish va aniqlash

			inson genetikasi, jonivorlar hamda o'simliklar genetikasi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Xozirgi vaqtda genofondni saqlash muammosi dunyoning ko'pgina mamlakatlari uchun dolzARB muammoga aylangan.
Gigiena	Gigiena	Hygiene	Yashash tarzi va mehnat sharoitining inson sog'lig'iga ta'sirini o'rGANADIGAN, kasalliklarni profilaktika qilish, sog'liqni saqlash va hayotni uzaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqadigan qadimiY tibbiyot sohalaridan biri.
Didaktik o'yinchoqlar	Didakticheskie igrushki	Didactic toys	Bolalarning aqliy va sensor rivojlanishi va ta'lim olishida xizmat qiladigan o'yinchoqlar turi. Bunday o'yinchoqlarga mozaikalar, stol ustida o'ynaladigan va bosma o'yinlar, xalq o'yinchoqlari (matryoshkalar, piramidalar, rangli sharlar, xushtaklar, chillaklar) kiradi.
Yosh guruhi	Mladshaya gruppa	Youger group	Yosh belgisiga ko'ra birlashtiriladigan kishilarning biron bir shartli katta guruhi. Yoshni davrlashtirishga muvofiq MTMda bolalarning yoshiga ko'ra ana'naviy ajratiladigan guruhalr: yasli yoshdagi bolalar guruhi, birinchi kichik yoshdagi bolalar guruhi, ikkinchi kichik yoshdagi bolalar guruhi, katta bolalar guruhi va maktabga tayyorlov guruhi.
Inklyuziv ta'lim	Inklyuziv-noe obrazovanie	Inclusive education	Bolalarni bir biridan ajratuvchi to'siqlarni bartaraf etishga, ularning yoshi, jinsi, diniy va ijtimoiy kelib

			chiqishi, jismoniy va aqliy rivojlanishdan orqada qolishi va iqtisodiy ta'minlanganlik darajasidan qat'iy nazar, umumta'lim jarayoniga to'liq uyg'unlashtirishga qaratilgan davlat siyosati.
Iste'dod	Talant	Talent	Qobiliyatlar, iqtidorlarning yuqori darajada rivojlanganligi bo'lib, ijodiy faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.
Kasbiy faoliyat	Professio-nalnaya deyatelno-st	Professional activity	Biron narsaning bajarilishining murakkab va me'yoriy jihatdan belgilangan usuli. Mehnat sub'ekti faoliyatining sifat jihatdan belgilanadigan shakli. Inson bajarayotgan faoliyatning murakkabligini tavsiflaydigan mezon.
Maktabgacha bolalik	Detskiy doshkol-nyu period	Preschool period	Bolaning tug'ilganidan to maktabga borguncha bo'lgan rivojlanish davri; bola organizmining jadal voyaga yetishi va ruhiyatining shakllanishi bilan belgilanadi.
Maktabgacha yosh	Doshkol-nyu vozrast	Preschool age	Bolaning ruhiy rivojlanish bosqichi. Bola rivojlanishining hozirgi zamон milliy davrlashtirilishi bo'yicha 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davri.
Maktabgacha yoshdagи bola kompetentligi	Kompeten-siya rebenka doshkolno-go vozrasta	Preschool child competence	Maktabgacha yoshdagи bola shaxsining asosiy xarakteristikasi. Kommunikativ, ijtimoiy, intellektual kompetentlikni hamda jismoniy rivojlanish borasidagi kompetentlikni o'z ichiga oladi. Kommunikativ kompetentlik bolaning o'z istaklari, niyatlarini nutqiy va nutqiy bo'lman (imo-

			ishora, mimik va pantomimik) vositalar yordamida erkin ifoda etishida namoyon bo'ladi.
Maktabgacha ta'lim muassasa-lari	Doshkol-nye obrazovate-lnye uchrejdeniya	Preschool educational institutions	Turli yo'nalishdagi maktabgacha ta'lim dasturlarini amalga oshiradigan ta'lim muassasasi. Ularda 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning tarbiyasi, ta'limi, parvarishi va sog'lomlashtirilishi ta'minlanadi. Yo'nalishiga ko'ra maktabgacha ta'lim muassasasi quyidagi turlarga bo'linadi: umumiy tipdagi MTM, tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsonlari mavjud bolalar uchun mo'ljallangan maxsus MTMlar va surunkali kasalliklar bilan og'rigan bolalar uchun sanatoriya tipdagi MTMlar.
Maktabgacha ta'lim muassasa-larning vazifalari	Zadachi doshkol-nogo obrazovate-lnogo uchrejdeniya	Tasks of a preschool educational institutions	ushbu muassasalarning vazifalari: bolalar hayotining muhofazasini, ularning intellektual, jismoniy va shaxs sifatidagi rivojlanishini ta'minlash uchun uning oilasi bilan aloqa o'rnatish.
Maktabgacha ta'lim muassasasi-ning moddiy-texnika bazasi	Material-noteknicheskaya baza doshkol-nogo obrazovate-lnogo uchrejdeniya	Material and technical base of a educational institutions	Muassasa balansida turgan asosiy vositalar majmui (bino, xovli, qo'shimcha qurilmalar, kommunikatsiya, yumshoq va qattiq jihozlar).
Maktabgacha ta'lim muassasasi-ning rivojlanish	Konsepsiya razvitiya obrazovate-lnogo uchrejdeniya	educational institution development concept	Maktabgacha ta'lim muassasasining kelgusidagi rivojini belgilab beradigan bosh g'oya; innovatsion jarayonlar natijasida uning yangilanishiga qaratilgan chora

konsepsiya-si			tadbirlar majmuini amalga oshirishning yetakchi tamoyili.
Milliy ana'nalar	Natsional-ные traditsii	National traditions	Millat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan tushunchalar, belgilari, xususiyatlari, qadriyatlar, faoliyat turlari, odatlar va xislatlarning avloddan avlodga o'tishi hamda meros bo'lib qolishini ifodalovchi tushuncha.
Nodavlat notijorat tashkilot	Negosudars-tvennaya nekommercheskaya organizasiya	Non-governmental non-profit organization	Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni o'z qatnashchilari o'rtasida taqsimlaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkiloti.
Oilaviy muhit	Semeynaya obstanovka	Family enviroment	Oilaviy munosabatlar, tarbiyaviy jarayonlar kechadigan ijtimoiyma'naviy, axloqiy muhitni ifodalovchi tushuncha. Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyati, dunyo qarashi, tasavvur va e'tiqodini shakllantirish hamda yuksaltirishda oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Inson qalbi va ongidagi eng sof, pokiza tuyg'ular, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlar, eng avvalo oila bag'rida shakllanadi.
Oliy ta'lim	Vysshee obrazovanie	Higher education	Turli oliy dargohlarda oliy malakali mutaxasislar tayyorlash oliy o'quv yurtlari tomonidan xalq xo'jaligi, fan va madaniyatning turli sohalari bo'yicha oliy malakali mutaxasis bo'lishni istagan, o'rtalik maxsus yoki kasb xunar ta'limi olgan hamda tegishli talablarni bajargan

			kishilarga ilmiy nazariy bilim berish xamda muayyan ko'nikmalarni shakllantirish yo'li bilan amalgalashiriladi.
Tarbiyalanuvchilar	Vospitan-niki	Pupils	Maktabgacha tarbiya muassasalariga boradigan bolalar; mehribonlik uylari, ixtisoslashtirilgan maktab internatlarda tarbiyalanuvchi bolalar va o'smirlar maktabdan tashqari muassasalarda shug'ullanadigan bolalar.
Tarbiyachi	Vospitatel	Educator	Tarbiyani amalgalashiradigan, o'zga kishi shaxsining hayot tarzi va rivojlanishi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan shaxs.
Ta'lismuassasasi-ni boshqarish	Rukovodstvo b obrazovate lnym uchrejdeniyem	Educational institution guide	Faoliyat subektlarining alohida faoliyati bo'lib, u rejalashtirish, tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish vositasida bolalar, pedagoglar, ota-onalar, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning xamkorlikdagi faoliyatining ta'limi takomillashtirish va ta'lismussasasini rivojlantirish maqsadlariga yo'nalganligini ta'minlaydi.
Ta'lismifati	Kachestvo obrazovaniya	The quality of education	Ta'lismifati va uning natijalarini tavsiflaydigan kategoriya, ta'lismifati qanday bo'lishi kerak, qanday maqsadlarga xizmat qilishi kerakligi to'g'risida jamiyatda tarqalgan tasavvurlarga qanchalik mosligini belgilaydi. Ta'lismifati ta'lismifati oluvchilarning bilimlari, malaka va ko'nikmalari, atrof-olamga va bir birlariga nisbatan qadriy-emotsional munosabatlar

			normalari bilan o'lchanadigan ko'rsatkichlar tizimida ifodalanadi.
Farmon	Ukaz	Decree	Birqator mamlakatlarda davlat boshlig'ining normativ akti. O'zbekistonda Prezident farmoni.

## VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T.: «Sharq», 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma’naviyat”, 2008.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: “O‘zbekiston”, 2011.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016. - 56 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O‘zbekiston, 2017. - 48 b
7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
8. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
9. “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
10. “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707-sonli Qarori.
11. “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi PQ-3261-sonli Qarori.
12. “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 sentyabrdagi PQ-3276-sonli Qarori.
13. “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30 sentyabrdagi PQ-3305-sonli Qarori.
14. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.

15. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdag‘i ma’ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.

16. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102b.

17. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

### **Maxsus adabiyotlar.**

18. Rahimov Sh. Asosiy vazifa – bolalarni ta’limga qamrab olish.// “Maktabgacha ta’lim” jurnali, 3-son, 2017. 2-3 bet.

19. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...: ota-onalar uchun. – T.: Manaviyat, 2013. – 320 b.

### **IV. Internet saytlar**

20. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

21. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

22. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi.

23. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portalı ZiyoNET

24. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.